

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

ТОШКЕНТ ТЎҚИМАЧИЛИК ВА ЕНГИЛ САНОАТ ИНСТИТУТИ

ЕНГИЛ САНОАТ ТЕХНОЛОГИЯСИ ФАКУЛЬТЕТИ

“Касб таълими” кафедраси

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

**МАВЗУ: «ЯХЛИТ БИЧИМЛИ АЁЛЛАР УСТКИ КИЙИМЛАРИНИ
ЛОЙИҲАЛАШ ВА МОДЕЛЛАШТИРИШ»НИ ЎҚИТИШДА
ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ
МЕТОДИКАСИ**

Бажарди: 18-11 гуруҳ талабаси

Торжанова Азиза Бахтиёровна

Раҳбар: катта ўқитувчи,

Исаева Махфуза Хамидовна

Тошкент-2015

Annotatsiya

Bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida yaxlit bichimli ayollar paltosini loyihalash va modellashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni elektron ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitish asosida shakllantirishga doir metodikaning mazmuni, tikuvchilik korxonalarida mehnat muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar tizimi keltirilgan.

Аннотация

В данной выпускной квалификационной работе дана сущность методики формирования знаний, умений и навыков проектирования и моделирования цельнокроеного женского пальто на основе использования электронных образовательных ресурсов при обучении теме «Проектирование и моделирование цельнокроеного женского пальто», содержание мероприятий по охране труда в швейных предприятиях.

Annotation

In the qualification work is given matter of the methodology of forming designing and modeling skills of the professional colleges pupils in women's winter outwear by teaching the "Designing and modeling women's winter outwear" used electronic educational resources and main arrangements of labour guarding at light industry enterprises.

Mund

Kirish	3
I Bob. Kasb - hunar kollejlarida "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish pedagogik muammo sifatida . . .	7

1. Kasb-hunar kollejlarida "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitishda elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan

foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari	7
2. 3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo'nalishining 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ta'lim yo'nalishidagi “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fanining o'quv - me'yoriy hujjatlari mazmuni	16
3. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o'qitish bo'yicha sillabusni ishlab chiqish	24
.	
II Bob. Kasb - hunar kollejlarda “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni elektron ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitish bo'yicha o'quv - uslubiy materiallarni ishlab chiqish	26
1. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo'yicha o'quv mashg'ulotlari mazmunini ishlab chiqish	26
2. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo'yicha elektron ta'lim resurslari ishtirokidagi o'quv mashg'ulotlarning ishlanmasini tayyorlash .	83
III Bob. Mehnat muhofazasi qismi	101
1. Tikuvchilik sexlarida ishchilarni xavfsizligini ta'minlash	101
Xulosa	103
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	105
Ilovalar	109

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda globallashtirish sharoitida jamiyatdagi har qanday tarmoq sohasini axborotlashtirish jarayoni jadal suratlar bilan kechmoqda. Hukumatimiz tomonidan mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohasini modernizatsiyalash sharoitida axborot – kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish, xizmat ko'rsatish sohaslarida interfaollikni oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar tizimi bugungi kundagi rivojlanish suratlarini belgilab bermoqda.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek [1]:

“..... Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014-yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.

O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, daromad solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.

O'tgan 2014-yilda 500 dan ziyod yangi korxonalar, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi”.

Mamlakatimiz istiqboli yo'lida iqtisodiyotning barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini kirib kelishi qator qonuniy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to'g'risida”gi qonuni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida” 2002 yil 30-maydagi PF-3080-son Farmoni [3] va Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2002 yil 200-son Qarori [4] kabilar.

Xususan, yengil sanoat ishlab chiqarish sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlar axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini texnologik jarayonlarga amaliy tatbiq etilishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Jumladan, mahalliy va qo'shma tikuv va tikuv-trikotaj korxonalarida BLAS komponentlaridan foydalanilishi, bugungi kunda eksportbop sifatli va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga sabab bo'lmoqda. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda kechayotgan tub islohotlarning samarali davom ettirilishi ko'p jihatdan ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarining axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish kompetentligi bilan chambarchas bog'liq bo'lmoqda.

Zamonaviy va axborot kompetentligiga ega malakalai mutaxassislarni tayyorlash bugungi kundagi kasb-hunar kollejlari tayyorlov dasturlarining asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda. Bo'lajak kichik mutaxassislarni kasbiy faoliyatida axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi asosan amaliy kasbiy ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Kasb - hunar ta'limining ilmiy - nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish masalalari S.Ya.Batishev, A.T.Belyaeva, M.A.Jidelev., K.N.Katxanov, I.Ya.Lerner, A.M.Novikov, V.A.Skakun kabi pedagog-olimlarning tadqiqot ishlarida har tomonlama o'rganilgan. Kasb-hunar ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirish masalalari bo'yicha N.A.Muslimov, Q.M.Abdullayeva, R.X.Jo'raev, Ya.Haydarov, P.Z.Ishanov, K.D.Mirsaidov, O.Abduqudusov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash masalalari V.P.Bespalko, G.K.Selevko, Farberman, B.Ziyomuxammadov, N.N.Azixodjayeva, N.Saidaxmedov, B.Xodiyev, L.V.Golish, R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardayev kabi olimlarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini yaratish va qo'llashning ilmiy-uslubiy jihatlari U.Sh.Begimqulov, N.I.Taylaqov, S.E.Nizomxonov, A.F.Olimov, R.O.Xamdamiy, G.A.Bordovskiyy,

M.T.Mihridinova, I.B.Gotskaya, V.I.Snegurova, V.T.Isakulov, Z.K.Xaknazarova, M.A.Aripjanova va U.T.Alimovlarning ishlarida bayon etilgan.

Biroq hozirgi kungacha kasb-hunar kollejlarda yengil sanoat yo'nalishlari bo'yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashda "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish muammosi nazariy-amaliy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan va Bitiruv malakaviy ishida ko'rib chiqiladigan masalalarning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti - kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o'qitishda foydalaniladigan elektron ta'lim resurslari.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti - kasb-hunar kollejlarda "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikasi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi - kasb-hunar kollejlarda "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni yaratishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

1. "Elektron ta'lim resurs"i tushunchasi mazmunini yoritish.
2. Kasb-hunar kollejlarda ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish.
3. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha yaratilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni, o'quv-metodik qo'llamanlarni tahlil qilish, mavzuning yoritilish darajasini aniqlash.
4. Maxsus fanlarni o'qitishga mo'ljallangan elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish bosqichlarini tahlil qilish.
5. Kasb-hunar kollejlarda 3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo'nalishining 3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar

modeller – konstruktori ta’lim yo’nalishidagi “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fanining o’quv - me’yoriy hujjatlari mazmuni o’rganish.

6. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o’qitish bo’yicha sillabusni ishlab chiqish.

7. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha nazariy mashg’ulotlar mazmunini ishlab chiqish.

8. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha amaliy mashg’ulotlar mazmunini ishlab chiqish.

9. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha mustaqil ta’lim mazmunini ishlab chiqish.

10. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha badiiy-uslubiy materiallarni ishlab chiqish.

11. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha elektron ta’lim resurslaridan foydalanib o’qitish metodikasini ishlab chiqish.

12. Yengil sanoat korxonalarida mehnat muxofazasi chora-tadbirlari mazmuni bilan tanishish.

Bitiruv malakaviy ishi metodlari: ilmiy–pedagogik va texnologik adabiyotlarning tahlili, o’quv jarayonini kuzatish, modellashtirish.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilmasi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa, nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va 3 nomdagi ilovadan iborat. Ishning umumiy hajmi betdan iborat bo’lib, unda 23 ta jadval va ta rasmlar o’z aksini topgan.

I Bob. Kasb - hunar kollejlarda “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o’qitishda elektron ta’lim resurslaridan foydalanish pedagogik muammo sifatida

1. Kasb-hunar kollejlarda “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o’qitishda elektron ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari

Mamlakatimizning bugungi kuni va kelajak istiqboli yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarimiz qo'lidadir [5]. O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda mutaxassislar yangi avlodining yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qonuniyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan [6-7]. Ma'lumki, bugungi kunda ta'limni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etish muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ham ta'limni insonparvarlashtirish orqali yuzaga kelgan muammolarni oqilona hal etib borish, yangicha metodoliya, didaktika va metodikani ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Hech kimga sir emas bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan zamonda jamiyatimiz taraqqiyoti barcha sohalariga yangidan-yangi texnologiyalarni, jumladan, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, multimedia va web-texnologiyalarning keng joriy qilinishi, kompyuter yordamida grafik tasvirlar, animatsiyalar va videoroliklarni hosil qilish va qayta ishlash texnologiyasini jiddiy o'rganish kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridan kompyuter savodxonligini talab qiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun muayyan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyat ko'rsatishining muhim iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslari belgilab beruvchi qonunchilik bazasi yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" 2002 yil 30-maydagi PF-3080-son Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 200-son Qarorlari shular jumlasidandir.


Hozirgi zamon ilmiy-texnik rivojlanishning jadallashgan bosqichining o'ziga xos xususiyatlaridan biri - bu jamiyat hayotining barcha jabhalarini

kompyuterlashtirishdan iboratligi, kasbiy faoliyatning tuzilishini keskin o'zgartirishni keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimi barcha bo'g'inlarining axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta'limning axborotlashuvida kundalik talabni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilaridam yangi axborotlar muhitida bemalol ishlay oluvchi ko'nikmalarini o'zlashtirishni talab etadi [8].

Bo'lajak mutaxassislarini axborot texnologiyalari bilan ishlay olish malaklarini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj, birinchidan, kasb-hunar ta'limi tizimida ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi intellektual ta'lim resurslarini joriy etilishi, ikkinchidan, ulardan foydalangan holda bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining dars berishi va maxsus fanlar bo'yicha mustaqil tarzda elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqarish qobiliyatiga egaligi, uchinchidan, o'qituvchning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarilishi bilan chambarchas bog'liq [9-10]:.

Kasb – hunar ta'limi tizimida foydalaniladigan elektron ta'lim resurslari haqida so'z borganda, dastavval “elektron ta'lim resursi” nima va unga qanday ta'lim vositalari taaluqliligini aniqlab olishimiz zarur.

Elektron ta'lim resurslariga fan bo'yicha yaratilgan elektron darslik, o'quv qo'llanma, ko'rsatmalar, multimediyali vositalar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o'xshash o'quvchining mustaqil bilim olishining ta'minlovchi, o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi resurslar kiradi (1-rasm).



1-rasm. Elektron ta'lim resurslari tizimi

1. Elektron darslik – fanning o'quv hajmini to'liq kamragan va masofaviy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter tsxnologiyalariga asoslangan, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga muljallangan bulib:

- o'quv va ilmiy materiallar fakat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (mant) va ikki ulchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko'p axborotli) elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va kisman verbal (matn) shaklda;

-taktil (his kilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

2. Elektron o'quv ko'llanma - fanning o'quv hajmini kisman yoki to'liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o'z ichiga olgan bo'lib, masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan o'quv manbai.

3. Elektron uslubiy qo'llanma - pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarkdtish shakli.

4. Virtual stendlar - haqiqiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalarlarning elektron modeli

5. Multimediyali vositalar - turli tipdagi axborotlarni va jarayonlarni matn, raem, sxema, jadval, diagramma va virtual muxitlarni yaratish, saklash, ishlov berish, rakamlashtirilgan va jarayonli kurinishda amalga oshirishning kompyuterli vositasi.

6. Elektron o'quv nashri - o'quvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

7. Gipermatn - elektron shaklda takdim etilgan hamda tarmoklangan bog'lanishlar tizimi bilan ta'minlangan va uning bir fragmentidan boshkdsiga darhol o'tish imkoniyatlari oldindan berilgan matn.

8. Elektron kutubxona - o'quvchi hamda pedagoglar uchun hujjatlashtirish va xavfsizlikning xususiy tizimi bilan ta'minlangan, to'liq matnli elektron axborotni resurslar, telekommunikatsiya vositalari asosida jamlash va etkazish imkoniyatini ta'minlovchi dasturli majmuadir.

9. Elektron lug'at-an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chaqarilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farkli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir kdtorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshkdlar bilan birga media- ob'ektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

10. Elektron nazorat (testlashtirish) - Elektron o'quv adabiyotining komponenti bo'lib, an'anaviy kompyutersiz testlashtirishning analogidir. Elektron testlashtirish holatida kompyuter test va uning natijalarini ko'rsatib beradi, bu bilan bog'liq bo'lgan algoritmlarni joriy qiladi.

11. Elektron testlar - saqlangan, ishlov berilgan va testlashtiruvchiga kompyuter yoki telekommunikatsion texnikasi yordamida takdim etiladigan testlar. Testlashtiruvchi «kog'oz» blankalarni to'ldirib, so'ngra unga kompyuterda ishlov bersa, bular kompyuterli test bo'lib hisoblanmaydi.

12. Elektron topshiriqlar - o'qituvchiga o'quvchilarning individul imkoniyatlarini hisobga olgan xolda mustaqil va nazorat ishlari uchun tartibga keltiradigan topshiriqlar majmuini o'zida aks ettiruvchi axborot manbasining muhim ko'rinishidir. Yaratilgan topshiriqlar o'quvchilarga an'anaviy «qog'oz»li va elektron variantlarida tavsiya etilishi mumkin.

Elektron ta'lim resurslarini loyihalash jarayoni kasbiy ta'limning ham pedagogik, ham psixologik jihatlarini hisobga olinib bajarilishi bilan bevosita aloqadorlikda kechadi. Kasb - hunar kollejlarda o'qitiladigan maxsus fanlar bo'yicha didaktik qonuniyatlarga javob beradigan elektron ta'lim resursi tarkibi va mazmunini ishlab chiqish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi [9]:

1. Maxsus fanlarni o'qitish maqsadi va yakuniy natijalarini belgilash;
2. Elektron ta'lim resursi uchun zaruriy amaliy dasturiy ta'minotni belgilash;
3. Ta'limning audiovisual vositalarini tanlash (audio va video konvertorlar);
4. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish (grafik va animatsion datuslar: CorelDraw X3, Adobe Photoshop CS4, Autodesk 3dsMax, Autodesk AutoCad - 2007);
5. Maxsus fan mavzulariga doir animatsiyalarni ishlab chiqish (animatsion dasturlar: Macromedia Flash, TechSmith Camtasia Studio 8.0.);
6. Fan mazmuniga oid elektron o'quv va uslubiy ta'minotni tayyorlash (Macromedia Dreamweaver, TeachBook Constructor);
7. Elektron ta'lim resursini o'quv jarayoniga tatbiq etish;

8. Ilm-fan va texnika-texnologiya yangiliklarini uzluksiz ravishda kiritib borish.

Elektron ta'lim resursi tizimini loyihalashda obyektga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalaniladi. Dastavval maxsus fanning elektron ta'lim resursi uchun kompyuterning D:/ diskida yangi papka ochiladi va unga fan maqsadi bo'yicha belgilangan o'quv materiallarining elektron matnli, grafik, tovushli, animatsion vositalari tayyor holda yig'iladi. Buning uchun CorelDraw X3, Adobe Photoshop CS 4, Autodesk 3dsMax, Autodesk AutoCad – 2007 va marvelous Designer amaliy dasturlaridan keng foydalaniladi. CorelDraw X3 dasturida vektorli grafika asosida ayollar ustki kiyimi eskizining grafik tasvirlar hosil qilinib, fayllardagi ob'yektlar JPEG formatda alohida papkaga saqlanadi. Adobe Photoshop CS4 dasturida turli xil formatdagi raqamli tasvirlarga ishlov berish: filtrlarni qo'llash, masshtabini o'zgartirish, rang berish, bir necha tasvirlarni yagona faylga birlashtirish mumkin. Autodesk 3dsMax dasturida uch o'lchamli tasvirlar va video roliklar hosil qilinadi. Autodesk AutoCad - 2007 yordamida ayollar yaxlit bichimli ustki kiyimning asos konstruksiyasi, model konstruksiyasi, anadazalari, texnologik uzellari kabi komponentlarning ikki o'lchamli tasvirlari bajariladi. Bu dasturning fayllari DWG formatiga ega bo'lib, ularni web-sahifalarga joylashtirish uchun JPEG formatga Adobe Photoshop CS 4 dasturi yordamida o'tkaziladi.

Fan bo'yicha o'quv materiallari Microsoft Office Word - 2007 dasturida yozilib, tayyor fayllarni yagona elektron tizim, ya'ni ta'lim resursi ko'rinishiga keltirishda TeachBook Constructor dasturiga murojaat qilinadi. TeachBook Constructor dasturi yordamida elektron ta'lim resursi tarkibiga ovozli va animatsion komponentlarni kiritish uchun muayyan buyruqlar majmuasi mavjud.

“Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o'qitishda elektron ta'lim resursi tarkibiga kiritiladigan videoroliklar raqamli video kameralar yordamida olinib, MPG, AVI va boshqa formatlarda saqlanadi. Shu bilan birga Autodesk AutoCad – 2007 dasturida buyum konstruksiyasi chizmalarini bajarishda ekrandagi tasvirlarni yozib olish maqsadida TechSmith

Camtasia Studio 8.0 dasturidan foydalanish mumkin bo'ladi [10-11]. Bunda raqamli tasvirlar AVI kengaytmasiga ega bo'ladi.

O'quv materiali elektron shaklda mavjud bo'lganida shuni yodda tutishimiz kerakki, komyuter ekranidan biror ma'lumotni idrok etish jarayoni 25-30 % murakkablikni tug'diradi. Shuning uchun, elektron ta'lim resursining dizayni, ish paneli va o'quv oynasining joylashuvini to'g'ri tanlanishi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining yoshi va bilimlarni o'zlashtirish qobiliyatiga psixologik jihatdan mos tanlanishi kerak. Asosan moviy, yashil, oq va och kulrang ranglarni tanlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu kabi ranglar, insonni idrok qilishini yengillashtirib, matni o'qish davomida o'quvchilar ko'zini toliqtirmaydi.

Kasb – hunar kollejlari maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanib o'qitishda quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi [12, 14]:

- 1) og'zaki-ko'rgazmali metod;
- 2) reproduktiv metod;
- 3) materialni muammoli bayon qilish metodi;
- 4) qisman izlanuvchanlik metodi;
- 5) tadqiqotchilik metodi.

Yuqorida bayon etilgan metodlar ichidan biz bugungi kunda mashhur bo'lgan muammoli o'qitish texnologiyasini tanlaymiz. "YAxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni elektron ta'lim resurslari vositasida o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirib, ularda mustaqil fikrlash qirralarini rivojlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda, muammoli o'qitish [15-17] deganda, mashg'ulotlarda pedagog tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tuShuniladi. Buning natijasida o'quvchilar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga, malakalarga ega bo'ladilar va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoli o'qitish, ijodiy jarayondan nostandart ilmiy-o'quv masalalarni nostandart usullar bilan yechishni taqozo etadi. O'quvchilarga mashq uchun

beriladigan masalalar, olingan bilimlarni mustahkamlash va malakalar hosil qilish uchun xizmat qilsa, muammoli masalalar esa faqat yangi yechimlar izlashga qaratiladi.

O'quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o'qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, o'quvchilar oldiga muammoli masalalar qo'yadi, ularni yechimining yo'llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o'zi yo'lga boshlaydi.

Shuni qat'iyatlik bilan ta'kidlash lozimki, bu yerda yangi bilimlar ma'lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An'anaviy pedagogik usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – o'quvchilar mustaqil ilmiy izlanish ko'nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o'zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi.

Muammoli o'qitish samaradorligining to'rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg'otishni ta'minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo'ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta'minlash (ma'lum va noma'lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni o'quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o'quvchi orasidagi munosabat xayrihohlik ruhida kechishi, ya'ni o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e'tibor va rag'batsiz qolmasligi zarur.

Muammoli o'qitishning uchta asosiy shakli mavjud:

1. O'quv materialini muammoli bayon etish – ma'ruza mashg'ulotlarda monolog tarzda olib boriladi. O'qituvchi ma'ruza paytida o'quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o'zi y, o'quvchilar esa yechimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo'shiladilar.

2. Qisman izlanish faoliyati. Laboratoriya va amaliy ishlarni bajarishda, muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo'ladi. O'qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya'ni savollar talabalarga intellektual qiyinchiliklar tug'diradi va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi.

3. Mustaqil tadqiqot faoliyatida o'quvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar.

Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari davomida maxsus fan o'qituvchisi quyidagi noan'anaviy rollarni bajaradi [13]:

1. O'qituvchi maslahatchi – o'quvchilarga an'anaviy tarzda ma'lumotlarni to'g'ridan – to'g'ri uzatmay, balki o'quvchilarni ma'lumotlar bilan ishlash va kerakli ma'lumotlarni izlab topishga undash kabi ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshiradi.

2. O'qituvchi moderator – dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro ta'sirlashuvini maxsus kommunikatsiya dasturlari orqali amalga oshirib, o'quvchilar uchun guruhda ishlashga mo'ljallangan maxsus topshiriqlar tizimini shakllantiradi.

3. O'qituvchi tyutor – o'qituvchi maslahatchi va o'qituvchi moderator xususiyatlarini o'zida aks etirib, o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z zimmasiga olgan holda ularning rivojlanish vektorini belgilab boradi.

Umuman olganda, kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, birinchidan, maxsus fan o'qituvchisining axborotli savodxonligini oshiradi, ikkinchidan, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi va uchinchidan, o'quvchilarning zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirgan holda ularning axborotli kompetentligini shakllanishiga olib keladi.

**2. 3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo'nalishining
3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ta'lim
yo'nalishidagi “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fanining
o'quv - me'yoriy hujjatlari mazmuni**


3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler konstruktori ta'lim yo'nalishi uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tarmoq ta'lim standarti asosiy me'yoriy hujjat hisoblanib, uning negizida namunaviy o'quv reja [18], namunaviy o'quv dasturi [19], ishchi o'quv reja [30] va ishchi o'quv dasturlari qabul qilinadi. Mazkur hujjatlar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va kasb-hunar ta'limi muassasasining o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha tayyorlanadigan kichik mutaxassislarni o'qitish jarayoni 2014-2015 yillarda Toshkent shahridagi Sergeli yengil sanoat va servis kasb-hunar kollejida amalga oshirildi.

3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar-modeler konstruktori ta'lim yo'nalishi bo'yicha namunaviy o'quv rejani (1-ilova) tahlil qilinganda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o'qitish bo'yicha alohida mavzular berilmay, balki “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” maxsus fani tarkibidagi “Ayollar qishki paltosi konstruksiyasini qurish va texnik modellashtirish” mavzusi mazmunida o'qitilishi nazarda tutilgan.

Kasb-hunar kollejlarda tikuvchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha malakali kichik mutaxassislarni tayyorlashda “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fani namunaviy o'quv rejadagi (1-ilova) qator umumkasbiy va o'quv amaliyoti fanlari bilan aloqadorlikda o'qitiladi (2-rasmga qarang).

“Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fanini boshqa fanlar bilan aloqadorligi o'rganilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, 2 - rasmda ko'rsatilgan turdosh fanlar ba'zilar o'rganilayotgan fan uchun poydevor (Odam anatomiyasi va fiziologiyasi, chizmachilik, tikuvchilik materialshunosligi), ikkinchilari esa bu fanning mantiqiy davomi, to'ldiruvchi (Tikuv buyumlari

texnologiyasi, buyum dizayni, kiyim bo'laklariga ishlov berish, kostyum tarixi) bo'lib xizmat qiladi. Turdosh fanlardan olinadigan bilim va ko'nikmalar TBLM fanidan kasbiy ko'nikmalar shakllanishiga bevosita yordam beradi.



2- rasm. “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fanini o’quv rejadagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi

“Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fani o’quv dasturi (3- ilova) 2012 yil O’ROO’MTV tomonidan tasdiqlangan namunaviy o’quv rejaga binoan 378 soat o’quv yuklamasi asosida o’qitilib, bunda 70 soat ma’ruza, 166 soat amaliy mashg’ulot, 24 soat kurs ishi va 118 soat mustaqil ta’limni amalga oshirish ko’zda tutilgan. Mazkur fanni beshta semestr bo’yicha o’qitilishi quyidagicha taqsimlangan (1- 2 -jadvallar):

“Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fani bo’yicha o’quv yuklamasining semestrlararo taqsimoti

Kurs	Semestr	O’quv yuklamasi, soat
1	2	20
2	3	40
2	4	60
3	5	100
3	6	50

“Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fanini o’qitish bo’yicha o’quv yuklamasining taqsimoti

	Fan nomi	Jami ajratilgan soat	Auditoriya mashg’ulotlari (260 soat)					Mustaqil ta’lim (soat)
			Nazariy	Amaliy	Laboratoriya	Seminar	Kurs ishi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	“Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish”	378	70	166			24	118

Fan dasturida keltirilgan bo’limlarda “Ayollar qishki paltosi konstruksiyasini qurish va texnik modellashtirish” bilan bog’liq mavzu o’z aksini topgan bo’lib, uni o’qitish uchun jami 20 soat o’quv yuklamasi ajratilib, bunda 6 soat nazariy va 14 soat amaliy mashg’ulotlarni o’qitish uchun mo’ljallangan bo’lib, bunda quyidagilar o’qitilishi nazarda tutilgan:

Ayollar paltosi konstruksiyasi qurishning o’ziga xos hususiyatlari. Ayollar paltosi bichimi, silueti va detallariga zamonaviy moda yo’nalishining tasiri.

Amaliy mashg’ulot. Modelning eskizi. O’lcham. Qo’shimcha. Hisoblash jadvalini tuzish. Ayolalar paltosi konstruksiyasini bazis setkasini qurish.

Amaliy mashg’ulot. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini M 1:5 qurish.

Amaliy mashg'ulot. Model eskizi. Palto yon chokini, ko'krak va bel vitochkalarining o'rinlarini aniqlash. Palto bortini kenligiga beriladigan qo'shimchalar. Bir va ikki bortli taqilmali palto chizish.

Amaliy mashg'ulot. Latskanni chizishda moda yo'nalishiga qarab chizish. Listochka va izma o'rnini hisoblash va chizish. Cho'ntak o'rnilarini belgilash.

Amaliy mashg'ulot. Model eskizi. Ayollar syurtigi konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

Amaliy mashg'ulot. Model eskizi. Ayollar paltosi ochiq taqilmali yoqa, fantaziy yoqalar konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

Amaliy mashg'ulot. Model eskizi. Ayollar paltosi konstruksiyasini modellashtirish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, "Ayollar qishki paltosi konstruksiyasini qurish va texnik modellashtirish" mavzusini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar tarkibida "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitish keltirilmagan. Lekin mazkur mavzuning o'qitilishi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining kelajakda kasbiy faoliyatlarini samarali tashkil qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun Bitiruv malakviy ishining mavzusidan kelib chiqqan holda "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitish bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimotini qayta ko'rib chiqilishi va unga ayollar ustki kiyimlarini murakkab modellashtirish usullarini kiritilishini tavsiya qilamiz.

"Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish" fanidan "Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish"ni o'qitish bo'yicha taqvimiy mavzuiy reja ishlab chiqildi (3-4 jadvallar):

3- jadval

“Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” mavzusini o’qitishning taqvimiy mavzular rejasi

T/r	Mutaxassislik va guruhlar	Umumiy ajratilgan soat (28 soat)							
		Hammasi	auditoriyadagi						mustaqil ish
			jami	Nazariy	Amaliy	laboratoriya	kurs ishi	seminar	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori	28	24	8	16				4

4-jadval

T/r	Mavzu	Ajratilgan vaqt (soat hisobida)	Mashg’ulot turi	Ta’lim metodlari	Predmetlararo aloqadorlik	Axborot manbalari, jihozlar va materiallar
1	2	3	4	5	6	7
1	Ayollar ustki kiyimi assortimenti: yaxlit bichimli ayollar paltosi	2	Ma’ruza	Muammoli ta’lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o’quv qo’llanma
2	Ayollar paltosi konstruksiyasini hisoblash va qurish	2	Ma’ruza	Muammoli ta’lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o’quv qo’llanma
3	Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish	2	Ma’ruza	Muammoli ta’lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o’quv qo’llanma
4	Yaxlit bichimli ayollar paltosiga texnologik ishlov berish	2	Ma’ruza	Muammoli ta’lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o’quv qo’llanma

5	Yaxlit bichimli ayollar paltosi modellarini ishlab chiqish	2	Amaliy mashg'ulot	Muam-moli ta'lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o'quv qo'llanma
6	Ayollar paltosi asos konstruksiyasini hisoblash va quish	4	Amaliy mashg'ulot	Muam-moli ta'lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o'quv qo'llanma
7	Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish	6	Amaliy mashg'ulot	Muam-moli ta'lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o'quv qo'llanma
8	Yaxlit bichimli ayollar paltosi asosiy andazalarini ishlab chiqish	2	Amaliy mashg'ulot	Muam-moli ta'lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o'quv qo'llanma
9	Yaxlit bichimli ayollar paltosiga texnologik ketma-ketligini tuzish	2	Amaliy mashg'ulot	Muam-moli ta'lim texnologiyasi	KLA, TBT, TBJ	Elektron o'quv qo'llanma

4-jadval davomi

O'quvchilarning auditoriyada bajaradigan mustaqil ish (topshiriq)lari	Foydalaniladigan manbalar	Nazorat turi	Uyga vazifa	Sana va guruhlar	Izoh
8	9	10	11	12	13
Ayollar ustki kiyimi assortimenti: yaxlit bichimli ayollar paltosi	Komilova X.N., N.K. Xamraeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". – T.: "Cho'lpon", 2011. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006.	Og'zaki	Yaxlit bichimli ayollar paltosining zamonaviy modellari bilan tanishish		

Ayollar paltosi konstruksiyasini hisoblash va qurish	Komilova X.N., N.K. Xamraeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". – T.: "Cho'iron", 2011. Штиглер М., Кролопп Л. «Жакеты и пальто». – М.: ЗАО «ЭДИПРЕСС КОНЛИГА», 2004. – 51-94 с.	Og'zaki	Ayollar paltosi AKsini qurishda "Мюллер и сын" uslubi bilan tanishish		
Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish	Komilova X.N., N.K. Xamraeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". – T.: "Cho'iron", 2011. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006. Конструирование одежды: учебник /Э.К.Амирова, О.В.Сакулина, Б.С.Сакулин, А.Т.Трухнова. – 6-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2010.	Og'zaki	Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish uchun dastlabki shablonlarni tayyorlash		
Yaxlit bichimli ayollar paltosiga texnologik ishlov berish	Жабборова М.Ш. Тикувчилик технологияси. – T.: «Ўқитувчи», 1994. Toshkent, 2005. Першина Л.Ф., Петрова С.В. Технология швейного производства. – М.: Легпромбытиздат, 1991. -416 с.	Og'zaki	Yaxlit bichimli ayollar paltosiga ishlov berishda zamonaviy asbob-uskunalar bilan tanishish		

Yaxlit bichimli ayollar paltosi modellarini ishlab chiqish	Komilova X.N., N.K. Xamraeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. – T.: “Cho’lpon”, 2011. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006.	Yozma	Yaxlit bichimli ayollar paltosi modellarini yaratish		
Ayollar paltosi asos konstruksiyasini hisoblash va quish	Штиглер М., Кролопп Л. «Жакеты и пальто». – М.: ЗАО «ЭДИПРЕСС КОНЛИГА», 2004. – 51-94 с.	Yozma	Ayollar paltosi AKsini M 1:5 va 1:1 qurish		
Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish	Komilova X.N., N.K. Xamraeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. – T.: “Cho’lpon”, 2011. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006. Конструирование одежды: учебник /Э.К.Амирова, О.В.Сакулина, Б.С.Сакулин, А.Т.Трухнова. – 6-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2010.	Yozma	Yaxlit bichimli xishtakli, xishtaksiz va kombinatsiyalashgan ayollar paltosi modellarini tayyorlash		
Asosiy andazalarni tayyorlash va jadvallarni to’ldirish	Komilova X.N., N.K. Xamraeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. – T.: “Cho’lpon”, 2011.	Yozma	Asosiy andazalarni M 1:5 da tayyorlash		

Yaxlit bichimli ayollar paltosiga texnologik ketma-ketligini tuzish	Жабборова М.Ш. Тикувчилик технологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1994. Кокеткин П.П., Кочегура Т.Н. и др. Промышленная технология одежды: Справочник. – М.: Легпромбытиздат, 2010. - 640 с. Каталог швейного оборудования «Трансметалл». – ИВАНОВО, 2010. -135 с.	Yozma	Yaxlit bichimli ayollar paltosi texnologik ketma-ketligini tuzish		
---	---	-------	---	--	--

3. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o’qitish bo’yicha sillabusni ishlab chiqish

3540600 - Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi tayyorlov yo’nalishining
3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori ixtisosligi uchun “Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fani bo’yicha “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o’qitishning sillabusi quyidagicha ishlab chiqildi (5 - jadval):

5- jadval

“Tikuv buyumlarini loyihalash va modellashtirish” fani bo’yicha “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni o’qitishning

SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi					
KHKning joylashgan manzili:	Mirobod yengil sanoat kasb-hunar kolleji	Sariko’l ko’chasi, 32- uy			
Kafedra:	“Maxsus fanlar” kafedراس				
Ta’lim sohasi va yo’nalishi:	3540604 – Keng assortimentdagi kiyimlar modeler – konstruktori	Yengil sanoat mahsulotlar texnologiyasi			
Fanni olib boradigan o’qituvchi haqida ma’lumot:	Tarjanova Aziza	e-mail:	Aziza_Tarjanova_@umail.uz		
Dars vaqti va joyi:	1-bino 108-auditoriya	Kursdagi bo’limning davomiyligi:	28 soat		
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Hafta kunlari bo’yicha soat 14.00 dan 16.00 gacha				
Fan bo’limiga ajratilgan soat:	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim:	4
	Ma’ruza:	8	Amaliyot		

Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi:	“Kiyimlarni kompyuterda loyihalash”, “Tikuv buyumlari texnologiyasi”, “Tikuv buyumlari jihozlari”			
Fandagi bo'limning mazmuni				
Fan bo'limining dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p>Maqsad - kasb – hunar kollejlari o'quvchilarini keng assortimentdagi ayollar yaxlit bichimli ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish ishlarini mustaqil bajara oladigan modeler-dizayner, bichuvchi mutaxassis tayyorlash uchun mo'ljallangan.</p> <p>Vazifasi – o'quvchini ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir.</p>			
O'quvchilar uchun talablar:	<ul style="list-style-type: none"> - o'qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; - uyali telefonni dars davomida o'chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; - darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatda qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish; - o'quvchi o'qituvchidan so'ng, dars xonasiga - mashg'ulotga kiritilmaydi. 			
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina kasb-hunar kolleji hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha			
Fan bo'limi mavzulari va ularga ajratilgan saotlar taqsimoti:				
№	Mavzular	Ma'ruza	Amaliy ish	Mustaqil ish
1.	Ayollar ustki kiyimi assortimenti: yaxlit bichimli ayollar paltosi	2	-	-
2.	Ayollar paltosi konstruksiyasini hisoblash va qurish	2	-	-
3.	Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish	2	-	-
4.	Yaxlit bichimli ayollar paltosiga texnologik ishlov berish	2	-	-
5.	Yaxlit bichimli ayollar paltosi modellarini ishlab chiqish	-	2	-
6.	Ayollar paltosi asos konstruksiyasini hisoblash va qurish	-	4	-
7.	Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish	-	6	4
8.	Yaxlit bichimli ayollar paltosi asosiy andazalarini ishlab chiqish	-	2	-
9.	Yaxlit bichimli ayollar paltosiga texnologik ketma-ketligini tuzish	-	2	-
Jami:		8	16	4
O'quvchilar bilimini baholash tizimi:				
t/r	Nazorat turidagi topshiriqlarning nomlanishi	Maksimal yig'ish mumkin bo'lgan ball		
<i>Ma'ruza mashg'ulotlarda</i>				
1.	O'quvchining ma'ruza mashg'ulotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati	1		
2.	Topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	2		
3.	AK va MK larni hisoblash va qurish, texnologik ishlov berishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish va amalda qo'llash.	2		
Jami:		5 ball		
<i>Amaliy mashg'ulotlarda</i>				
1.	O'quvchining amaliy mashg'ulotlardagi faolligi va o'zlashtirish darajasi, daftarlarning yuritilishi va holati	1		
2.	Topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	2		
3.	AK va MK larni hisoblash va qurish, asosiy andazalarni ishlab chiqish, texnologik ishlov berishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish va amalda qo'llash.	2		
Jami:		5 ball		
Asosiy adabiyotlar:	Komilova X.N., N.K. Xamraeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. – T.: “Cho'lpon”, 2011.			
Qo'shimcha adabiyotlar:	Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006. Конструирование одежды: учебник / Э.К.Амирова, О.В.Сакулина, Б.С.Сакулин, А.Т.Трухнова. – 6-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2010.			

II Bob. Kasb - hunar kollejlarda “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish”ni elektron ta’lim resurslaridan foydalanib o’qitish bo’yicha o’quv - uslubiy materiallarni ishlab chiqish

1. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha o’quv mashg’ulotlari mazmunini ishlab chiqish
1.1. “Yaxlit bichimli ayollar ustki kiyimlarini loyihalash va modellashtirish” bo’yicha nazariy mashg’ulotlar mazmunini ishlab chiqish

Ma’ruza. Ayollar ustki kiyimi assortimenti: yaxlit bichimli ayollar paltosi

Reja:

1. Ayollar ustki kiyimi assortimenti uchun zamonaviy moda yo’nalishi tavsifi.
2. Ayollar ustki kiyimlariga qo’yiladigan talablar.
3. Yaxlit bichimli ayollar paltosi uchun tavsiya etiladigan materiallar.

Tayanch tushunchalar: palto, Hermes, The Row, Chloe, Derek Lam, Giorgio Armani, Aquilano Rimondi, Akris, Etro, Blumarine, Valentino, Chloe, Dolce and Gabbana, Roberto Cavalli, Ralph Lauren, tik yoqa, assimetik yoqa, kimono yenglar, klassik ranglar, kashemir, dublerin, furnitura.

Adabiyotlar:

1. Komilova X.N., N.K. Xamraeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. – T.: “Cho’lpon”, 2011.
2. <http://primalook.ru/site/articles/zhenskoe-palto-osen-zima-2014-2015.html>
3. <http://volna2m.narod.ru/Tab1.html>
4. <http://www.samitex.org/catalog/12/>
5. <http://tkaninfo.ru/vybor/podkladochnaya.html>

Ayollar ustki kiyimlariga elkada turadigan kiyimlar taaluqli bo’lib, ularga palto, plash, jaket, pidjak, kurtka, pocho, yopinchiq va shu kabilar kiradi. Palto – ayollar garderobining ajralmas qismi hisoblanib, u o’z sohibasining jozibadorligi va ko’rkamliligini namoyon qilib turuvchi ustki kiyimlardan biri hisoblanadi.

Paltoning asosiy mo'ljali sovuqdan saqlash va kiyimning ichki mikro iqlimini ta'minlab berishdan iborat. Hajmdor kurtka va mo'ynali ustki kiyimlarga qaraganda palto odam qomatini visual jihatdan kattalashtirmaydi va fiziologik noqulayliklarni tug'dirmaydi.

2014-2015 yil kuz/qish mavsumida moda uylari dizaynerlari tomonidan oddiy modellarga ko'proq e'tibor berildi. Shuningdek, taniqli brend Fendi bezakli sport uslubidagi palto modellarini taklif etmoqda. Hermes, The Row, Chloe brendlari esa umuman shaklsiz paltolarni o'z muxlislariga taqdim etishdi. Bunda paltoni kiygan model qiz xuddi kashemir yopinchiqqa o'ralgandek tuyuladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu mavsumdagi paltolar siluet va shakl jihatidan klassik uslubdan tortib to avangard uslubda bo'ganlargacha uchratish mumkin.

Kuz/qish mavsumida dizaynerlar erkin va hajmdor siluetslarga o'z e'tiborlarini qaratdilar. Ayniqsa "oversayz" uslubidagi modellar ko'pchilik e'tiborini o'ziga tortdi. Derek Lam, Giorgio Armani, Aquilano Rimondi, Akris kolleksiyalaridagi oversayz paltolarda bezak elementlari qo'llanilmagan bo'lsa, Emanuel Ungaro, Prada, Diane von Furstenberg, DKNY modellarida esa aksincha qo'shimcha bezak elementlari mavjudligi guvohi bolishimiz mumkin.

Ijodkor va nozik did sohibalari uchun Etro, Blumarine, Valentino, Chloe, Dolce and Gabbana, Roberto Cavalli, Ralph Lauren kabilar yopinchiq-paltolar, uzun mantiyalar, poncho va keyplarni o'z kolleksiyalarida namoyish qilishgan.

Hajmdor va kengaygan shakllardan tashqari Come Prima klassik uslubdagi tik yoqali yoki umuman yoqasiz to'g'ri siluetli palto-futlyarni taklif etgan.

Jason Wu, Valentino, Celin, Hermes, Gucci k brendlari o'z muxlislariga bir va ikki bortli pardessyu, dafllkot, palto-redingot, sving-palto, palto-frak va boshqa modellarni kuz/qish mavsumida kiyib yurish uchun tavsiya qilishgan. Shuningdek, zapax paltolar Philip Lim, Oscar de la Renta, Hugo Boss, Donna Karan kolleksiyalarida namoyish etilgan.

Ustki kiyim uzunligi haqida so'z borganda, Come Prima brendi midi va kalta paltolarni taklif etgan. Ular silueti jihatidan yapon kimono-larin takrorlaydilar.

Bunday paltolarda tik yoqa va apash, belbog' kabi elementlari kishi diqqatini o'ziga tortadi.

2014-2015 kuz/qish mavsumining yana bir o'ziga xos jihati bu paltolarda kalta yenglardan foydalanilganligidir. Ayrim modellarda yeng umuman bo'lmasligi yoki faqatgina tirsakkacha uzunlikda bo'lishi bilan ajralib turadi. Bugungi kundagi urfga kirgan yeng uzunligi: bilakkacha, tirsakkacha va $\frac{3}{4}$ uzunliklardir.

Bezak elementlari sifatida Louis Vuitton, Balenciaga, Fendi, Jonathan Saunder, Valentino, Belstaff a moda kolleksiyalarida paltolarda assimetrik yoqalar, yeng va old bo'laklarni charm bilan ishlov berish, assimetrik cho'ntaklarning ikki qavatli qopqoqlari, mo'ynali qo'yilmalar, bezak zigzagsimon baxyaqatorlar, bezak tugmalar va "molniyali" tasmalar bilan ishlov berilganlik guvohi bo'lishimiz mumkin.

Ushbu mavsumdagi ayollar paltolarining ranglarini aniqlashda mashhur brendlar turli xil takliflarni berishmoqda, jumladan, Blumarine – oq, Bcbg, Calvin Klein, Helmut Lang, Marni, Michael Kors – leopard printli, katakli, geometric motivlar, sariq jigarrang, qizil, siyohrang, klassik ranglar kabilar.

Zamonaviy moda talabalari bo'yicha ayollar ustki kiyimlari uchun tabiiy matolardan foydalanish tavsiya etiladi. Moda uylari dizaynerlari qator tabiiy materiallardan foydalanishgan: Max Mara brendi - charm, Christian Dior – qorako'l, velvet va charm, Алессандро Дель'Аква – yaltiroq ipli mato.

Shuningdek, palto nafaqat estetik jihatdan chiroyli ko'rinishga ega bo'lishi, balki o'z sohibasini issiq tutishi uchun dizaynerlar kashemir, velyur, krep, bukle, streych-jakkard, charm, drap va boshqa materiallarni taklif qilishgan.

Bezak elementlari sifatida MICHAEL Michael Kors, Burberry London, Adam Lippes va Mulberry mo'ynali yoqa va yeng manjetlaridan foydalanishgan bo'lsa, boshqa taniqli dizaynerlar metallic tugmalar va keng kamarlar hamda belbog'larni qo'llashgan.

Ayollar ustki kiyimlarini yuqori sifatlilikini faqatgina ularning tashqi ko'rinishi belgilamay, balki ularning muayyan iste'molchi talablarga javob berishi bilan ham belgilanadi. Ayollar paltosiga asosan quyidagi talablarni qo'yish mumkin:

Ergonomik talablar - buyumni eksplutatsiya qilish davrida inson uchun qulay sharoit yaratuvchi, uni toliqtirmaydigan sharoit tug'diruvchi faktorlar kiradi.

Funksional talablar - model aniq bir vazifaga moljallangan, iste'molchining antropometrik o'lchamlari guruhiga mos kelishi kerak. Ayni buyumning vazifasi modelga, uning konstruksiyasiga va materiallariga qo'yilqigan talablarni shakllantira oladi.

Eksplutatsion talab - buyumni foydalanishga yaroqli holini uzoq muddat davomida saqlay olish qobiliyatidir. Bunda model o'z shaklini saqlovchanligi, materialni mustahkamligi, biriktiruvchi choklarning uzilishga chidamliligi kabi talablarga javob berishi kerak.

Estetik talablar - model konstruksiyasining badiiy butunligi, mukammalligi va zamonaviy moda talablariga javob berishi hamda haridorgirligi kiradi.

Yuqorida ayollar ustki kiyimlari, xususan paltosi uchun qo'yiladigan talabalarni hisobga olgan holda, uni ishlab chiqarish uchun zamonaviy materiallar assortimentini tanlash mumkin bo'ladi. Ayollar paltosi uchun avra, astar, qotirmalik materiallar va furnitura kerak bo'ladi.

Zamonaviy palto modellarini ishlab chiqarishda asosan avra gazlama uchun kashemir, astar uchun polyester, qotirmalik material sifatida – trikotaj asosli dublerin kabilarni tavsiya etish mumkin.

Kashemir (cachemir, Kaschmir, cashmere) – sarja o'rilishli juda ham ingiichka, yumshoq va issiq matodir. Kashemir matosi asosan Hindiston, Xitoy, Mo'g'iliston va Pokiston tog'li hududlarida yashaydigan echkilarning junidan tayyorlanadi. Hozirgi kunda kashemir atamasi paxta va shoyiga jun tolalari aralashmasi qo'shilgan matolarni izohlashda ham qo'llaniladi.

Poliester – juda ham mustahkam va uzoq muddatga chidamli astarlik matodir. U ko'p martalik kuchlanishlar ta'sirida ham o'z tashqi ko'rinishini yo'qotmaydi.

Dublerin – maxsus yelim qoplamali qotirmalik mato bo'lib, undagi yelim nuqtalar ko'rinishida joylashgan bo'ladi. Ayollar paltosi uchun trikotaj polotnoli asosli duvlerindan foydalanish mumkin.

Oyoqchali metal tugmalar ayollar ustki kiyimlari uchun eng afzal furniture turlaridan biridir. Biriktiruvchi furniture sifatida paxta-lavsan tolalari iplar paltolarga ishlov berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda 35JIX (JL, JLII) markali ip paltoning sifatli chiqishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Ayollar ustki kiyimlariga qanday buyumlar kiradi?
2. Zamonaviy moda kolleksiyalarida qanday bichim va siluetdagi ayollar paltosining modellarini uchratish mumkin?
3. Ayollar ustki kiyimi uchun zamonaviy bezak elementlari va materiallarga nimalar kiradi?
4. Ayollar ustki kiyimiga qanday talablar qo'yiladi?
5. Ayollar paltosi uchun qanday materiallarni tavsiya qilish mumkin?

Ma'ruza. Ayollar paltosi konstruksiyasini hisoblash va qurish

Reja:

1. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini qurishda "Мюллер и сын" uslubi Ayollar paltosi asos konstruksiyasini qurishga doir datslabki ma'lumotlar.

2. Ayollar paltosi old va ort bo'lagi asos konstruksiyasini hisoblash va loyihalash.

3. Ayollar paltosi ikki chokli yangi asos konstruksiyasini hisoblash va loyihalash.

Tayanch tushunchalar: old bo'lak, ort bo'lak, yeng.

Adabiyotlar:

1. Komilova X.N., N.K. Xamraeva “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash”. – T.: “Cho’lpon”, 2011.
2. Штиглер М., Кролопп Л. «Жакеты и пальто». – М.: ЗАО «ЭДИПРЕСС КОНЛИГА», 2004. – 51-94 с.

Ayollar paltosi konstruksiyasini qurishda “Мюллер и сын” uslubidan foydalanish modelyer-kinstruktor uchun ancha qukayliklar yaratib beradi. Mazkur uslubda asosan birinchi va ikkinchi tur hisoblash formulalaridan foydalaniladi. Shu bilan birga konstruksiyani qurishda asosan hisob-grafik usuldan keng foydalaniladi. “Мюллер и сын” uslubi yordamida qurilgan ustki kiyim konstruksiyasi tayyor holda odam qomatida yaxshi o’rnashuvni ta’minlab beradi.

“Мюллер и сын” uslubi ayollar nim yopishgan paltosi konstruksiyasini qurish uchun asosiy va yordamchi o’lcham ko’rsatkichlari kerak bo’ladi. Asosiy o’lcham ko’rsat kichlariga bo’y (P), ko’krak aylanasi (Or), bel aylanasi (Or), bo’ksa aylanasi (Ob), yeng uzunligi (Dp) kabilar kiradi. Yordamchi o’lcham ko’rsatkichlariga ort bo’lak tomonida o’imiz balandligi (Bnp3), belgacha ort uzunlik (Dtc), bo’ksa balandligi (B6), buyum uzunligi (Di), ort bo’lak tomonidan bo’yin o’imizi kengligi (Шш3), ko’krak balandligi II (Br II), old tomon belgacha uzunlik II (Дтп II), ort bo’lak kengligi (Шс), yeng o’imizi kengligi (Шпp), old bo’lak ko’krak kengligi (Шr), yelka kengligi (Шп) va yelka kengligi hisoblangan (Шп(p)) kabilar kiradi. Ort bo’lak kengligi (Шс), yeng o’imizi kengligi (Шпp) va old bo’lak ko’krak kengligi (Шr) yig’indisi ko’krak yarim aylanasiga qo’shimcha qo’shilgan kenglikka teng bo’lishi lozim.

Yelka kengligini to’g’ri tanlanishi buyum sifatli o’rnashuvini ta’minlab beradi (6- jadval):

6- jadval

Or o’lchamiga bog’liq holda Шп o’lchamni tanlash

Or	80	84	88	92	96	100	104	110	116	122	128	134
Шп	11,8	12	12,2	12,4	12,6	12,8	13	13,3	13,6	13,9	14,2	14,5

Ayollar paltosi asos konstrksiyasini qurishda dastlabki ma'lumotlar sifatida to'kislik qo'shimchalari tanlanadi (7- jadval):

7- jadval

Palto uchun qo'shimchalar

O'lchamlar	Nim yopishgan siluet	To'g'ri siluet
Bnpз	3-4	4-5
IIIc	1,5-2	2-2,5
IIIп	3,5-4,5	4,5-5,5
IIIr	2	2
Cr	7,5-8,5	8,5-100

Ayollar paltosi asos konstrksiyasini qurish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:


Dastavval vertikal chiqiz o'tkazilib, unda asosiy chiziqlar chiziladi.

1-2 - Ort bo'lak yeng o'mizigacha uzunlikka qo'shimcha qoshib, yuqoridan pastga qaratib vertical chiziqda belgilanadi. 1-3 – Ort bo'lak belgacha uzunlik. 1-4 – Bo'ksa balandligi. 1-5 – Buyum uzunligi.

Barcha hosil qilingan nuqtalardan chap tomonga gorizontal chiziqlar o'tkaziladi. 3-6 - 2 sm. 4-7 - 2 sm. 1-6 va 6-8 chiziqlar orqali ort bo'lak o'rta chizig'i o'tkaziladi. Nuqta 9 ko'krak chizig'ida hosil bo'ladi. 9-10 – ort bo'lak kengligi plyusqo'shimcha. Umumiy yeng o'mizi kengligi ikki qismga bo'linadi. 10-11 – umumiy yeng o'mizi kengligining $\frac{1}{2}$ qismi beriladi. 11-11a - $6 \div 10$ sm, bu old va ort bo'laklar oralig'idagi masofa. 11a-12 - umumiy yeng o'mizi kengligining $\frac{1}{2}$ qismi beriladi. 12-13 – old bo'lak ko'krak kengligi plyus qo'shimcha. Olingan nuqtadan old bo'lak o'rta chizig'i o'tkaziladi. 13-14 – $1/10$ ko'krak aylanasi plyus $1 \div 1,5$ sm. 13-11a va 11-9 kesmalari o'lchanib, ularning umumiy bazis to'ri kengligiga mosligi tekshiriladi. So'ngra barcha hosil qilingan nuqtalardan vertical chiziqlar o'tkaziladi.

1-15 - Ort bo'lak tomonidan bo'yin o'mizi kengligi plyus $0 \div 0,5$ sm. 15-16 – 2 sm vertical chiziq bo'ylab yuqoriga chiqiladi. 16-1 – ort bo'lak bo'yin o'mizi chizig'i mayin egri chiziq bilan chiziladi. 17-18 - $1 \div 1,5$ sm pastga qarab yelka chizig'ini belgilash uchun qo'yiladi. 16-18 – yelka chizig'i. 16-19 – ort bo'lak

yelka chizig'i uzunligi. Bu yerda hisoblangan yelka kengligi qiymati qo'yiladi. Nuqta 20 10-18 kesmaning o'rtasida joylashadi. Nuqta 20dan gorizontal chiziq o'tkazib, uni ort bo'lak o'miz chizig'idan 1 sm tashqariga davom ettiriladi.



3-rasm. Ayollar paltosi asos konstruksiyasi chizmasi

Nuqta 21 20-10 kesmaning o'rtasida joylashadi. Nuqta 21dan chapga $1,3 \div 1,5$ sm o'lchab qoyiladi. Bu o'lcham yeng o'mizini chizish uchun kerak. 12-22 - masofa 10-21ga teng olinadi. 12-23 – ushbu kesma 10-18 dan $1 \div 2$ sm kaltaroq chiziladi. Nuqta 24 bel chizig'i bilan kesishgan joyda hosil boladi. 24-25 – old bo'lak belgacha uzunlik. 25-26 – ko'krak balandligi II (3-rasm).

Nuqta 25 va nuqta 23lardan radius markazi nuqta 26 va nuqta 12 bo'lgan holda yoylar o'tkaziladi. 23-27 – yoy bo'yicha ko'krak yarim aylanasining $1/10$ qismi minus $0 \div 2$ sm. 12-23 kesma 10-18 kesma uzunligidan 2 sm kalta bo'ladi. 27-28 – nuqta 27 dan ort bo'lak yelka kengligi 16-19dan 1 sm kalta yoy chiziladi va nuqta 28 topiladi. Nuqta 29 nuqta 25dan old bo'lak o'tar chizig'iga perpendikulyar o'tkazish orqali hosil qilinadi. 27-22 – nuqtalar o'zaro mayin egri chiziq bilan birlashtirilib, yeng o'mizi chizig'ini hosil qiladi. 29-30 - ort bo'lak tomonidan

bo'yin o'mizi kengligi plyus $0 \div 0,5$ sm. 29-31 - ort bo'lak tomonidan bo'yin o'mizi kengligi plyus $1,5 \div 2$ sm. 29-12 – yordamchi kesma bo'ylab ort bo'lak tomonidan bo'yin o'mizi kengligi plyus $0,5 \div 1$ sm belgilanadi. 30-31 – old bo'lak bo'yin o'mizi chizig'i o'tkaziladi.

28-32 – kesma uzunligi 30-25 kesma uzunligiga teng. 32-26 - ko'krak vitochkasining chap tomonini o'lchab, nuqta 26dan o'ng tomoniga belgi qo'yiladi va nuqta 33 hosil qilinadi. 30-33 – o'zaro birlashtiriladi. Old bo'lak yelka balandligi 1 sm pastga tushadi va ort bo'lak yelka balandligi 1 sm yuqoriga ko'tariladi.

Tog'ri siluetli paltoda bel vitochkalari qurilmaydi, faqatgina bazis to'rida bo'ksa chizig'ini mos kelishi bo'ksa yarim aylanasiga $5 \div 8$ sm qo'shish orqali aniqlanib, bazis to'ridan chiqqan qismi, old va ort bo'laklarning bo'ksa chizig'i bo'ylab yon qirimlariga teng taqsimlab qo'yiladi nuqta 44 va 44a. Bel chizig'idan yuqoriga 1 sm chiqib, ichkariga $1 \div 1,5$ sm o'lchab qo'yiladi.

Mazkur konstruksiya bo'yicha yeng chizmasini chizish uchun yordamchi Kc va Kπ nuqtalarning o'rni topiladi. Kc nuqta 21 ro'parasida joylashgan bo'ladi. Kπ nuqta 12dan yuqorifa $\frac{1}{4}$ yeng o'mizi kengligi o'lchab qoyiladi va o'ng tomonga yeng o'mizi chizig'I bilan kesishish o'rnida topiladi.


Ayollar paltosi yeng asos konstruksiyasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida yeng o'mizi balandligi (Bπp), yeng o'mizi uzunligi (Дπp), yeng o'mizi kengligi (Шπp), yeng uzunligi (Дp), yeng uchi kengligi (ШpH) va yeng qiyamasi balandligi (Bок) o'lchamari kerak bo'ladi. Paltolar uchun yeng uchi kengligi ikki chokli yengga $28 \div 32$ sm, bir chokli yeng uchun $30 \div 34$ smni tashkil qilishi mumkin.

Yeng o'mizi balandligini aniqlash uchun 12-27a va 19a nuqtadan ko'krak chizigigacha tushirilgan perpendikulyargacha masofalar yig'indisiga teng. Yeng o'mizi uzunligi santimetrli tasmani qiya qo'yib 19a-27a kesma o'lchanadi.

Endilikda yeng asos konstruksiyasini qurish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi (4-rasm):

Vertikal chiziq chiziladi. 1-2 – yeng qiyamasi balandligi. 1-3 – yeng uzunligi. 3-4 – 2 sm. 2-5 - /2-4/ kesmaning $\frac{1}{2}$ qismi minus 1 sm.

Nuqtalar 1, 2, 5, va 3 dan o'ng tomonga gorizontalar o'tkaziladi. 2- K_{Π} – yeng o'mizi kengligining $\frac{1}{4}$ qismi. K_{Π} -6 - yeng o'mizi kengligining $\frac{1}{2}$ qismi minus $0,5 \div 1,5$ sm. 1-6 – yeng o'mizi kengligi o'lchanadi. Nuqta 6 dan pastga perpendikulyar o'tkaziladi va kesishgan joylarda 7 va 8 nuqtalar hosil bo'ladi. 1-9 - /1-6/ kesmaning $\frac{1}{2}$ qismi plus 1 sm. Nuqta 1- 1-9 o'rtasida joylashadi. Nuqta 10 K_{Π} bilan tutashtiriladi. Nuqta 11 kesma /10- K_{Π} / o'rtasida joylashadi. 6-12 – yeng o'mizi kengligi plus 0,5 sm. 7-13 - /2-7/ kesmaning $\frac{1}{2}$ qismi plus 1 sm. 9-11 va 9-12 yordamchi kesmalar o'tkaziladi. Nuqta 12 dan ichkariga 0,5 sm belgilanib, 13 nuqtaga tushiriladi.



4-rasm. Ayollar paltosi yengi asos konstruksiyasi chizmasi: a-yopiq holdagi yeng; b-ochiq holdagi yeng.

K_{Π} -11 – qismida yeng qiyamasi to'g'ri chiziq shaklida qoladi. K_{Π} -BIII uchastkasi old bo'lak yeng o'miziga mos bo'lishi kerak. 5-14 va 4-15 – old chiziqni qurish uchun $0 \div 1$ sm o'tiladi. 8-16 - tirsak chiziqni qurish uchun 1 sm o'tiladi. 15-17 – yeng uchi kengligi. Barcha ochiq nuqtalar 4a-rasmdagidek tutastiriladi. Ushbu yeng asos konstruksiyasidan bir va ikki chokli yenglarni modellashtirib hosil qilish mumkin.

Nazorat savollar:

1. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini qurish uchun qanday o'lchamlar kerak bo'ladi?
2. Tog'ri siluetli palto uchun qo'shimchalar qiymati nimaga teng?
3. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini qurish qaysi bo'lakdan boshlanadi?
4. Yeng asos chizmasini qurish uchun Kc va Kп nuqtalarning nima ahamiyati bor?

Ma'ruza. Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish

Reja:

1. Xishtaksiz yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasini shablon usulida qurish.
2. Xishtakli yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasini shablon usulida qurish.
3. Kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasini shablon usulida qurish.

Tayanch tushunchalar: ayollar paltosi AK old va ort bo'lagi, ikki chokli yeng, xishtak, o'tqazma yeng qismi.

Adabiyotlar:

1. Kamilova, X.K. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash: oliy o'quv yurtlari uchun darslik X.K. Kamilova, H.K. Xamrayeva; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.- 253-261 b.
2. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006.
3. Конструирование одежды: учебник /Э.К.Амирова, О.В.Сакулина, Б.С.Сакулин, А.Т.Трухнова. – 6-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2010.

Yaxlit bichimli ustki kiyimlar asosan ikki xil usul yordamida hosil qilinadi:

1. Hisob-grafik usuli.
2. Shablon usuli.

Hisob-grafik usuliga nisbatan shablon usuli yengilroq bo'lib, uning yordamida yumshoq shaklli xishtaksiz, xishtakli va kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli kiyimlarni hosil qilish mumkin. Yumshoq shaklli yaxlit bichimli kiyimning yeng o'mizi qismida yumshoq taxlamalar hosil bo'lib, yeng o'mizi bo'ylab qiriqmi bo'lmaydi (3-4-listlar). Xishtakli yaxlit bichimli kiyimda turli xil shakllardagi xishtaklar hosil qilinib, yeng o'mizidagi taxlama miqdori kamroq bo'ladi va o'mizda qiriqmi bo'lmaydi (1-2-listlar). Kombinatsiyalashgan yeng ham yaxlit bichim, ham o'tkazma bichim xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi (5-6-listlar).

Yumshoq shaklli xishtaksiz yaxlit bichimli ayollar paltosini qurish uchun avvalambor old va ort bo'lak hamda ikki chokli yeng shablonlari tayyorlab olinadi. Ort bo'lak shablonini tayyorlashda yelka vitochkasini yeng o'miziga ochi yuboriladi, old bo'lak ko'krak vitochkasining ma'lum qismi ham yeng o'miziga o'tkaziladi. Yengning vitochkasi yeng qiymasiga ochib yuboriladi. Old va ort bo'laklarning yon chiziqlari bir xil masofada bo'lishi kerak. Old bo'lak yeng qiyamasi 27a nuqtaga va ort bo'lak yengi qiyamasi 19a nuqtalarga qo'yib, bir xil burchak ostida o'zaro moslanadi. Bunda ort bo'lak yelka chizig'ining ko'tarilishi 1,5 smni tashkil qilishi lozim.

Old va ort bo'laklarda yon chiziqlarida yeng chizig'ini belgilanish joyi bir xil masofada olinadi. Ko'pincha yumshoq shakldagi yaxlit bichimli yenglarni hosil qilishda nazorat burchaklaridan foydalaniladi.

Modellashtirishning yakuniy bosqichida old va ort bo'laklari yenglar bilan birgalikda o'zaro birlashtirilib, mayin chiroyli shakl hosil qilinadi.

Xishtakli yaxlit bichimli kiyim model kkonstruksiyasini qurish xishtaksiz yaxlit bichimli kiyimni modellashtirishga nisbatan murakkab bo'lsada, tayyor modelning chiroyli va kam taxlamali tashqi ko'rinishini ta'minlab beradi. Bunda xuddi yuqoridagi misol kabi old va ort bo'laklar, yeng asos konstruksiyalari

modellashtirilib olinadi. Xishtak o'rnini aniqlash uchun nuqtalar 1 va 2 yeng o'mizida belgilanadi. Old va ort bo'laklardagi yordamchi Kc va Kπ nuqtalar old va ort yenglardagi xuddi shu nuqtalar bilan o'zaro moslab, konstruksiyaga qo'yiladi. Old bo'lakda yeng old bo'lak chizig'i va yon bo'lakni kesishgan joyida nuqta 3 belgilanadi. Ort bo'lakda yeng ort bo'lak chizig'i va yon bo'lakni kesishgan joyida nuqta 4 belgilanadi. 1-3 va 2-4 kesmalarning uzunligi o'zaro teng bo'lishi kerak. Aks holda, ularning o'zaro o'rtacha masofasi topilib xishtak chiziladi.

Xishtak romb shaklida bo'lib, o'zaro perpendikulyar chiziqlar chiziladi va kesishga nuqtasidan o'ngga 11a-2 va chapga 11-1 masofa o'lchab qo'yiladi. Romb balandligi 1-3 va 2-4 kesmalarning uzunligiga teng bo'lib, yo'llar usulida chizib topiladi. Modellashtirilgan kiyimning chiziqlarni o'tkazishda yeng osti qirqim chiziqlari old bo'lakda 2-3 kesmada va ort bo'lakda 1-4 kesmada joylashadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xishtak balandligini yon tomon bo'ylab tushirib yuborish tavsiya etilmaydi.

Kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasini ishlab chiqishda ham yaxlit bichim, ham o'tkazma bichim elementlari modellashtiriladi. Kombinatsiyalashgan yaxlit bichim hosil qilish uchun dastlab shablonlar tayyorlanadi. Bunda old bo'lakko'krak vitochkasi va ort bo'lak yelka vitochkasi yeng o'miziga ko'chirilib, old va ort bo'laklarda relyef chiziqlari o'tkaziladi. Relyef chiziqlari boshlangan nuqtalarning uzunligi aniqlanib, yengda qo'shimcha vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Ular konstruksiya chizmasida yaxlit yeng boshlanish va tugallanish joylarini ko'rsatib turadi.

Yeng bo'laklari old va ort bo'laklar bilan o'zaro moslashtirib qo'yiladi. Yengning old va ort bo'laklari old chizig'i bo'ylab o'zaro moslanib birlashtirib qo'yiladi. Bunda yengning yaxlit bichilgan qismi asta-sekinlik bilan relyef chizig'iga o'tib ketadi. Qolgan o'miz qismiga yeng bolagi o'tkazib birlashtiriladi.

Ak va MK chizmalari

Nazorat savollari:

1. Yaxlit bichimli kiyimlarni modellashtirish uchun qanday usullardan foydalaniladi?
2. Nima uchun yaxlit bichimli kiyimlarni modellashtirishda shablon usulidan ko'proq foydalaniladi?
3. Xishtaksiz yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasi qanday hosil qilinadi?
4. Xishtakli yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasi qanday hosil qilinadi?
5. Kombinatiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasi qanday hosil qilinadi?

Ma'ruza. Yaxlit bichimli ayollar paltosiga ishlov berish

Reja:

1. Yaxlit bichimli ayollar paltosining texnologik xususiyatlari.
2. Modelga muvofiq asbob-uskuna, jihozlarning tavsifi.

Tayanch tushunchalar: bort, adip, tik yoqa, qoplama cho'ntak, belbog', kesim.

Adabiyotlar:

1. Жабборова М.Ш. Тикувчилик технологияси. – Т.: «Ўқитувчи», 1994.
2. Кокеткин П.П., Кочегура Т.Н. и др. Промышленная технология одежды: Справочник. – М.: Легпромбытиздат, 2010. - 640 с.
3. Каталог швейного оборудования «Трансметалл». – Иваново, 2010. -135 с.

Yaxlit bichimli ikki bortli ayollar paltosiga ishlov berish xuddi bir bortli paltoga ishlo vberish kabi amalga oshiriladi. Ustki kiyimlarga texnologik ishlov berish ularning shakl saqlovchanlik xususiyatlarini barqarorlashtirishdan boshlanadi. Ya'ni old bo'lak tik yoqa, yelka va ko'krak qismi, bort va etak qismlariga va yeng manjetiga yelimli qotirma yopishtiriladi. Ort bo'lak tik yoqa, kesim va etak qismlariga yelimli qotirma yopishtiriladi. Qoplama cho'ntakning

yuqori qirqimi, adip va belboqqa ham yelimli qotirma yopishtiriladi. Yelimli qotirmaning yopishtirish presslarda amalga oshiriladi. So'ngra old bo'lak ko'krak va ort bo'lak yelka vitochkalari biriktirib tikiladi.

Yaxlit bichimli ayollar paltosiga ishlov berishda asosan yoqa (A-A), bort (B-B), qoplama cho'ntak (C-C), manjet (D-D), kesim (E-E), etak (F-F) va belbog' (H-H) uzellariga ishlov berish ahamiyatlidir.

Paltoning tik yoqasi bort bilan yaxlit bichilgan bo'lib, ustki yoqa deb nomlanadi. Ostki yoqa va mag'iz asosiy gazlamadan yoqa o'miziga mos holda bichib olinadi. Ostki yoqa va mag'iz biriktirma chok bilan birlashtirilib, choki yorib dazmollanadi. So'ngra adipga ostki yoqa uchi qirqimlari birlashtiriladi va yorib dazmollanadi.

Yoqa va bortga ishlov berishdan avval yelka va yeng chiziqlari birlashtirilib tikiladi. Yeng old qirqimlari ham biriktirib tikilib, bunda chok kengligi 1 smga teng. Palto yon bo'laklari biriktirib tikilgandan so'ng yeng osti xishtagi biriktirib bostirib tikiladi.

Adip va bort yoqa chizig'I bo'ylab ag'darma chok bilan ishlov beriladi. Ag'darma chok kengligi 0,7 smni tashkil qiladi. Bortga "bezak ziy" bilan ishlov beriladi. Adip bortdan 0,1 sm ichkariga kiritilib, adip va bort birikish chizig'idan 0,1 sm o'tib bostirma bezak baxyaqator yuritiladi.

Old bo'lakda qoplama cho'ntak o'rni belgilanadi. Qoplama cho'ntak avra detail astar detail bilan ag'darma chok bilan biriktirib tikiladi kertiliklar berilib, o'ngiga ag'dariladi. So'ngra qoplama cho'ntak old bo'lakka bostirib tikiladi va uchlari puxtalanadi.

Belboqqa ishlov berishda maxsus moslamadan foydalanish mumkin. Bunda belbog' qirqimlari ichkariga qaytarilib bostirib tikiladi.

Ort bo'lak kesimini tikish etak bilan kesimni biriktirib tikishdan boshlanadi. Kesim dazmollanadi va yuqori tomonidan bezak choki yuritiladi.

Yeng uchiga yolg'on manjet bilan ishlov berishda, manjet yon qirqimlari biriktirib tikiladi va yorib dazmollanadi. Manjet tashqi qirqimi yengga ulanadi.

texnik rasm va qirqimlar

Astar detallari o'zaro biriktirilib paltoga yoqa mag'izi, adip va etak qirqimlari bo'ylab biriktirib tikiladi. Choklar yorib dazmollanadi. Yeng old qirqimida 15-20 sm joy ochiq qoldirilib, astar yeng uchi avra yengga ulanadi. Songra ochiq joyi 0,1 sm kenglikdagi chok bilan bostirib tikiladi.

Yaxlit bichimli ikki bortli ayollar paltosida tugma va izmalar o'rni belgilanib, izma ochiladi va tugmalar tikiladi. Paltoga uzil-kesil namlab–isitib ishlov beriladi.

Ayollar paltosiga texnologik ishlov berish samaradorligini oshirish maqsadida ipli biriktirish va yelimli biriktirish usllarini qo'llashga imkon beradigan zamonaviy asbob-uskunalar tanlanadi. Jumladan ayollar paltosiga texnologik ishlov berish uchun Yaponiyaning “Juki” firmasi universal mashinalari va yarimavtomatlari tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi (8-9 - jadvallar).

8- jadval

Universal, maxsus mashinalar va yarimavtomatlar haqida ma'lumot

T\r	Mashinalar nomi va maqsadga muvofiqligi	Mashina belgisi	Mashina aylanish tezligi min.	Qo'shimcha ma'lumotlar
1	2	3	4	5
1	Yaponiyaning “Juki” firmasi	DDL 8300-NH	5000	Avtomatik moylash tizimiga ega
2	Yaponiyaning “Juki” firmasi	LBH-780U	3600	Izma ochish
3	Yaponiyaning “Juki” firmasi	AMB-289	4200	Oyoqchali tugma qadash
4	Yaponiyaning “Juki” firmasi	LK-190A	3000	Puxtalamlar hosil qilish
5	Yaponiyaning “Juki” firmasi	MN-484-4LK-4	5500	Ziylarni ko'klash

9 - jadval

Namlab-isitib ishlov berish jihozlari haqida ma'lumot

T\r	Operatsiya nomi	Amalda ishlatilish	Asbob-uskuna nomi	Qo'shimcha ma'lumotlar
1	2	3	4	5
1	Italiyaning “Rotondi” firmasi	Dazmol va dazmollash stoli	Rotondi 3300	O'g'ir va yengil buyumlarga mo'ljallangan
2	Italiyaning “Rotondi” firmasi	Universal qo'l pressi	BX CO-90/CR	

Nazorat savollari:

1. Yaxlit bichimli xishtakli ayollar paltosiga ishlov berishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ayollar paltosiga ishlov berishda asosan qanday choklardan foydalaniladi?
3. Ayollar paltosiga ishlov berish uchun qanday asbob-uskinalardan foydalanish mumkin?

1.2. Maxsus fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar mazmunini ishlab chiqish

Amaliy ish. Yaxlit bichimli ayollar paltosi modellarini ishlab chiqish

Ishdan maqsad. Yaxlit bichimli ayollar paltosining zamonaviy modellari bilan tanishish va eskizlarini chizish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ishni mazmuni va bajarish tartibi:

1. Ayollar ustki kiyimi assortimenti bo'yicha zamonaviy moda yo'nalishini o'rganish.
2. Yaxlit bichimli ayollar paltosining uch xil model eskizlarini yaratish.
3. Modellarga tavsif berish.

Uslubiy ko'rsatmalar

O'quvchilar ayollar ustki kiyimi assortimenti bo'yicha so'ggi moda kolleksiyalarini tahlil qiladilar va bunda: shakl, siluet, bichim, rang, yoqa, yeng, bort, cho'ntaklar shakli, zamonaviy rang va materiallarni ko'rib chiqishadi.

Ayollar ustki kiyimlariga elkada turadigan kiyimlar taaluqli bo'lib, ularga palto, plash, jaket, pidjak, kurtka, pocho, yopinchiq va shu kabilar kiradi. Palto – ayollar garderobining ajralmas qismi hisoblanib, u o'z sohibasining jozibadorligi va ko'rkamliligini namoyon qilib turuvchi ustki kiyimlardan biri hisoblanadi. Paltoning asosiy mo'ljali sovuqdan saqlash va kiyimning ichki miro iqlimini ta'minlab berishdan iborat. Hajmdor kurtka va mo'ynali ustki kiyimlarga qaraganda palto odam qomatini visual jihatdan kattalashtirmaydi va fiziologik noqulayliklarni tug'dirmaydi.

2014-2015 yil kuz/qish mavsumida moda uylari dizaynerlari tomonidan oddiy modellarga ko'proq e'tibor berildi. Shuningdek, taniqli brend Fendi bezakli sport uslubidagi palto modellarini taklif etmoqda. Hermes, The Row, Chloe brendlari esa umuman shaklsiz paltolarni o'z muxlislariga taqdim etishdi. Bunda paltoni kiygan model qiz xuddi kashemir yopinchiqqa o'ralgandek tuyuladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu mavsumdagi paltolar siluet va shakl jihatidan klassik uslubdan tortib to avangard uslubda bo'ganlargacha uchratish mumkin. Yenglar uzun, tirsakkacha va $\frac{3}{4}$ uzunlikda bo'ladi. Mavsumning asosiy ranglariga klassik ranglar, qizil, sariq, siyohrang kabi yorqin ranglar ham taaluqlidir. Shu bilan birga turli hil hayvonsimon printlardan ham keng foydalaniladi.

Zamonaviy moda tahlili asosida o'quvchilar yaxlit bichimli ayollar paltosining xishtakli, xishtaksiz va kombinatsiyalashgan modellarini yaratadi.

Model eskizlari asosida tavsiflar yoziladi. Model tashqi ko'rinishining tavsifi quyidagi ketma-ketlikda tuziladi:

1-model. Yaxlit bichimli xishtakli ayollar paltosi (1-eskiz):

- kiyimning nomi, vazifasi, materiali va h.k. : ayollar paltosi, materiali-kashemir, silueti – to'g'ri;
- shakli (silueti, bichimi, taqilmasi): ayollar yaxlit bichimli xishtakli paltosi, ikki bortli, 14 ta tugmali va izmali taqilmali;
- ort bo'lak konstruksiyasining tavsifi: yelkasida vitochkali, tik yoqasi yaxlit bichilgan, o'rta chokli va etagida kesimli;
- old bo'lak konstruksiyasining tavsifi: ko'krak vitochkali, bel chizig'idan pastroqda qoplama cho'ntakli, tik yoqasi old bo'lak bilan yaxlit bichilgan;
- yenglar konstruksiyasining tavsifi: yeng uzunligi tirsak chokidan 6 sm pastda yolg'on manjetli;
- astarli.
- bort, latskan va etak bezaklarining turi: ikki bortli, taqilmasi yuqorigacha, bortiga bezak bostirma chok bilan ishlov berilgan.
- tavsiya qilingan razmer va bo'ylar: 84-92, 164-170.

2-model. Yaxlit bichimli xishtaksiz ayollar paltosi (2-eskiz):

- kiyimning nomi, vazifasi, materiali va h.k. : ayollar paltosi, material-kashemir, silueti – to'g'ri;
- shakli (silueti, bichimi, taqilmasi): ayollar yaxlit bichimli xishtaksiz paltosi, bir bortli, 7 ta tugmali va izmali taqilmali;
- ort bo'lak konstruksiyasining tavsifi: o'rta chokli va etagida kesimli;
- old bo'lak konstruksiyasining tavsifi: tik yoqasi old bo'lak bilan yaxlit bichilgan, bel chizig'ida qoplama cho'ntakli;
- yenglar konstruksiyasining tavsifi: yeng uzunligi tirsak chokidan 6 sm pastda yolg'on manjetli;
- astarli.
- bort, latskan va etak bezaklarining turi: bir bortli, taqilmasi yuqorigacha, bortiga bezak bostirma chok bilan ishlov berilgan.
- tavsiya qilingan razmer va bo'ylar: 84-92, 164-170.

3-model. Kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli xishtakli ayollar paltosi (3-eskiz):

- kiyimning nomi, vazifasi, materiali va h.k. : ayollar paltosi, material-kashemir, silueti – to'g'ri;
- shakli (silueti, bichimi, taqilmasi): kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi, ikki bortli, 14 ta tugmali va izmali taqilmali;
- ort bo'lak konstruksiyasining tavsifi: yeng o'mizidan chiqqan relyefli, etagi kengaygan;
- old bo'lak konstruksiyasining tavsifi: yeng o'mizidan chiqqan relyefli, etagi kengaygan, shal yoqasi old bo'lak bilan yaxlit bichilgan;
- yenglar konstruksiyasining tavsifi: yeng uzunligi bilakkacha;
- astarli.
- bort, latskan va etak bezaklarining turi: ikki bortli, taqilmasi ko'krak chizig'idan pastroqda, bortiga bezak bostirma chok bilan ishlov berilgan.
- tavsiya qilingan razmer va bo'ylar: 84-92, 164-170.

Eskizlar

Hisobotga qo'yiladigan talablar:

1. Zamonaviy moda yo'nalishi bo'yicha ma'lumotlar to'plash.
2. Uch xil eskizni A4 formatli qog'ozda rangli grafikada bajarish.
3. Model eskizlariga tavsif yozish.
4. Amaliy ish hisobotini A4 formatli qog'ozda rasmiylashtirish.

Ko'rgazmali qo'llanmalar:

Moda jurnallari, "Atelye" jurnali.

Nazorat savollari:

1. Bugungi kunda ayollar ustki kiyimlari shakl jihatdan qanday o'zgarishlarga yuz tutgan?
2. Mavsumning zamonaviy ranglariga nimalar kiradi?
3. Yaxlit bichimli ayollar paltosi qanday o'ziga xos xususiyatlarga ega?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilova X.N., N.K. Xamraeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". – T.: "Cho'lpon", 2011.
2. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006.

Amaliy ish. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini hisoblash va qurish

Ishdan maqsad: ayollar paltosi asos konstruksiyasini "Мюллер и сын" uslubi yordamida qurish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ishni mazmuni va bajarish tartibi:

1. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar: tipaviy qomat o'lcham ko'rsatkichlari va qo'shimchalarni tanlash.
2. Ayollar paltosi asos konstruksiyasini qurish hisobi bajarish.
3. Ayollar paltosi yangi asos konstruksiyasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlarni aniqlash.
4. Ayollar paltosi yangi asos konstruksiyasini qurish qurish hisobini bajarish.

Uslubiy ko'rsatmalar

Ayollar paltosi AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar sifatida [1] adabiyotdan o'lchamlar va qo'shimchalar olinadi. O'quvchilar AK uchun dastlabki ma'lumotlarni individual qomatdan yoki [1] adabiyotda keltirilgan ilova jadvalidan olishlari mumkin.

O'lchamlar soni tanlangan va ishlanayotgan ob'ekt assortimentiga bog'lab olinadi, tushuntirish xatida razmer o'lchamlari 10-11 - jadvallarda keltiriladi.

10- jadval

Tipaviy (individual) qomatning o'lchamlari

Bo'y (T1) - 168, razmer (T16) - 88, to'lalilik guruhi (T19) – 94

Asosiy o'lchamlar

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1	Bo'y	P	168
2	Ko'krak aylanasi	Or	88
3	Bel aylanasi	Or	92
4	Bo'ksa aylanasi	Ob	94
5	Yeng uzunligi	Dp	60

11- jadval

Yordamchi o'lchamlar

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Dastlabki qiymati, sm	Qo'shimcha hisob	Hisob qiymati, sm
1	2	3	4	5	6
1	Ort bo'lak tomonida o'miz balandligi	Впрз	19	+ 3	22
2	Belgacha ort uzunlik	Дтс	41,1	-	-
3	Bo'ksa balandligi	Вб	60,5	-	-
4	Buyum uzunligi	Ди	-	-	-
5	Ort bo'lak tomonidan bo'yin o'mizi kengligi	Шшз	6,7	-	-
6	Ko'krak balandligi II	Br II	26,6	-	-
7	Old tomon belgacha uzunlik II	Дтп II	44,9	-	-
8	Ort bo'lak kengligi	Шс	16,5	+1,5	18
	Yeng o'mizi kengligi	Шпр	9,5	+ 4	13,5
	Old bo'lak ko'krak kengligi	Шr	18	+ 2	20
	Ko'krak yarim aylanasi	Cr	44	7,5	51,5
9	Yelka kengligi	Шп	12,2	-	-
10	Yelka kengligi hisoblangan	Шп(р)	12,2	+ 1,5+1	14,7

Qo'shimchalar tanlashda ishlanayotgan model xususiyatlariga (nomi, vazifasi, silueti, material xususiyati va h.k.) hamda kelgusi mavsum uchun moda yo'nalishi bo'yicha tavsiyalarga ahamiyat beriladi. Tanlangan qo'shimchalar va ularning qiymatlari tushuntirish xatida 12 - jadvalda keltiriladi.

12 - jadval

Qo'shimchalar qiymati

№	O'lcham nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1	Ort bo'lak tomonida o'miz balandligi	П _{Впрз}	3
2	Ort bo'lak kengligi	П _{Шс}	1,5
3	Yeng o'mizi kengligi	П _{Шпр}	4
4	Old bo'lak ko'krak kengligi	П _{Шг}	2
5	Ko'krak yarim aylanasi	П _{Or}	7,5
6	Bo'ksa aylanasi	П _{Об}	6
7	Bel aylanasi	П _{Or}	6

Ayollar paltosi AKni hisoblash va qurish ishlari bir vaqtda parallel ravishda bajariladi, konstruktsiya hisobi jadval shaklida (13- jadval) yoziladi, AK chizmasi esa 1:5 masshtabda A4 formatda bajariladi.

13 - jadval

Ayollar paltosi AK chizmasini qurish uchun hisobi

Bo'y (T1) - 168, razmer (T16) - 88, to'lalilik guruhi (T19) – 94

№	Shartli belgilanishi	Hisoblash formulasi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1	1-2	Впрз	22
2	1-3	Дгс	41.1
3	1-4	Вб	60.5
4	1-5	Ди	100
5	3-6	-	2
6	4-7	-	2
7	1-6 va 6-8	К	-
8	(.) 9	К	18
9	9-10	Шс	18
10	10-11	2/3 Шпр	9
11	11-11a	6÷10	6
12	11a-12	1/3 Шпр	4.5
13	12-13	Шг	20

14	13-14	$1/10 O_{\Gamma} + 1$	10
15	13-11a va 11-9	$O_{\Gamma} + \Pi_{\Gamma}$	51.5
16	1-15	III_{III}	6.7
17	15-16	-	2
18	16-1	-	2
19	17-18	$1 \div 1,5 \text{ sm}$	1
20	16-18	K	-
21	16-19	$\text{III}_{\Pi(p)}$	14.7
22	(.) 20	$/10-18/ \frac{1}{2}$	-
23	(.) 21	$/20-10/ \frac{1}{2}$	-
24	Kc-21	$1,3 \div 1,5 \text{ sm}$	1.5
25	12-22	10-21	-
26	12-23	$/10-18/ -1 \text{ sm}$	-
27	(.)24	K	-
28	24-25	$\Delta_{\Gamma\Pi} \Pi$	44.9
29	25-26	$B_{\Gamma} \Pi$	26.6
30	R (26)	(.) 25 va (.) 23	-
31	23-27	$1/10 C_{\Gamma} - 1 \text{ sm}$	4.4
32	27-28	$/16-19/-1 \text{ sm}$	-
33	(.)29	$\perp (.) 25$	-
34	27-22	K	-
35	29-30	$\text{III}_{\text{III}} + (0 \div 0,5 \text{ sm})$	6.7
36	29-31	$\text{III}_{\text{III}} + (1,5 \div 2 \text{ sm})$	8.2
37	29-12	$\text{III}_{\text{III}} + (0,5 \div 1 \text{ sm})$	7.7
38	30-31	K	-
39	30-25	28-32	-
40	32-26	(.)33	-
41	34-35	$\frac{1}{4} O_{\Gamma}$	17.5
42	35-36	$\frac{1}{2} O_{\Gamma} + (6 \div 10 \text{ sm})$	41
43	36-6	Vitochka qiymati	7
44	39-40	$C_{\text{б}} + (5 \div 8 \text{ sm})$	53
45	39-41	K	-
46	7-40	Vitochka qiymati	3
47	(.)43 va (.)43a	$1 \div 1,5 \text{ sm}$	1
48	(.)44 va (.)44a	$/7-40/ \frac{1}{2}$	-
49	(.)41	-	0.7
50	(.)Kc	(.)21	-
51	(.)K Π	$\frac{1}{4} \text{III}_{\Pi}$	4.5

Ayollar paltosi yangi asos konstruksiyasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar tayyor AK chizmasidan aniqlanadi. Yeng chizmasini chizish uchun yordamchi Kc va K Π nuqtalarning o'rnini topiladi. Kc nuqta 21 ro'parasida joylashgan bo'ladi. K Π nuqta 12dan yuqoriga $\frac{1}{4}$ yeng o'mizi kengligi o'lchab qoyiladi va o'ng tomonga yeng o'mizi chizig'I bilan kesishish o'rnida topiladi.

Yeng o'mizi balandligini aniqlash uchun 12-27a va 19a nuqtadan ko'krak chizigigacha tushirilgan perpendikulyargacha masofalar yig'indisiga teng. Yeng o'mizi uzunlig santimetrli tasmani qiya qo'yib 19a-27a kesma o'lchanadi. Yeng AKsini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar aniqlanib, 14- jadvalga kiritiladi:

14- jadval

Yeng AK qurish uchun o'lcham ko'rsatkichlari

№	O'lchamlar nomi	Shartli belgisi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1	O'miz balandligi	Впр	40
2	Yeng o'mizi uzunligi	Дпр	48
3	Yeng o'mizi kengligi	Шпр	13.5
4	Yeng uzunligi	Др	60
5	Yeng uchi kengligi	Шрн	30
6	Yeng qiyamasi balandligi	Вок	17

Ayollar paltosi yengi AKni hisoblash va qurish ishlari bir vaqtda parallel ravishda bajariladi, konstruktsiya hisobi jadval shaklida (15- jadval) yoziladi, AK chizmasi esa 1:5 masshtabda A4 formatda bajariladi.

15 - jadval

Ayollar paltosi yengi AK chizmasini qurish uchun hisobi

№	Shartli belgilanishi	Hisoblash formulasi	Qiymati, sm
1	2	3	4
1	1-2	Вок	17
2	1-3	Др	60
3	3-4	-	2
4	2-5	$/2-4/ \frac{1}{2} - 1 \text{ sm}$	19.5
5	2- Кп	$\frac{1}{4} \text{ Шпр}$	3.5
6	Кп-6	$\frac{1}{2} \text{ Дпр} - (0,5 \div 1,5 \text{ sm})$	22.5
7	1-6	$\text{Шпр} + (4 \div 5 \text{ sm})$	18
8	1-9	$/1-6/ \frac{1}{2} + 1 \text{ sm}$	10
9	(.) 10	$/1-9/ \frac{1}{2}$	5
10	(.) 11	$/10- \text{Кп}/ \frac{1}{2}$	-
11	6-12	$\frac{1}{4} \text{ Шпр} + 0,5 \text{ sm}$	4
12	7-13	$/2-7/ \frac{1}{2} + 1 \text{ sm}$	10
13	12 dan 13	0.5 sm	0.5
14	9-11 va 9-12	O'rtasidan \perp 1.2 sm va 1 sm	1.2, 1
15	5-`4 va 4-15	$0 \div 1 \text{ sm}$	1
16	8-16	1 sm	1
17	15-17	$\frac{1}{2} \text{ Шрн}$	15

Hisobotga qo'yiladigan talablar:

1. Ayollar paltosi AK qurish uchun dastlabki ma'lumotlarni tanlash.
2. Ayollar paltosi AKni qurish.
3. Ayollar paltosi yangi AK qurish uchun dastlabki ma'lumotlarni tanlash.
4. Ayollar paltosi yangi AKni qurish.
5. Amaliy ish hisobotini A4 formatli qog'ozda rasmiylashtirish.
6. Ayollar paltosi AK chizmalari A4 formatga chiziladi.
7. Ayollar paltosi AK chizmalari M 1:1 millimetrovka qog'ozga chiziladi.

Ko'rgazmali qo'llanmalar:

Moda jurnallari, "Atelye" jurnali, ayollar paltosi AK chizmasi plakati.

Nazorat savollari:

1. Ayollar paltosi AKni chizish uchun qanday dastlabki ma'lumotlar tanlanadi?
2. Ayollar paltosi AK qurish bosqichlari nimalardan iborat?
3. Ayollar paltosi yangi AKni chizish uchun qanday dastlabki ma'lumotlar tanlanadi?
4. Ayollar paltosi yangi AK qurish bosqichlari nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Штиглер М., Кролопп Л. «Жакеты и пальто». – М.: ЗАО «ЭДИПРЕСС КОНЛИГА», 2004. – 51-94 с.
2. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006.

Amaliy ish. Yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish

Ishdan maqsad: xishtakli, xishtaksiz va kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosini shablon usulida modellashtirish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

Ishni mazmuni va bajarish tartibi:

1. Yumshoq shaklli xishtaksiz yaxlit bichimli ayollar paltosini modellashtirish.
2. Xishtakli yaxlit bichimli ayollar paltosini modellashtirish.
3. Kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosini modellashtirish.

Uslubiy ko'rsatmalar

Yumshoq shaklli yaxlit bichimli kiyimning yeng o'mizi qismida yumshoq taxlamalar hosil bo'lib, yeng o'mizi bo'ylab qiriqmi bo'lmaydi (3-4-listlar). Xishtakli yaxlit bichimli kiyimda turli xil shakllardagi xishtaklar hosil qilinib, yeng o'mizidagi taxlama miqdori kamroq bo'ladi va o'mizda qiriqm bo'lmaydi (1-2-listlar). Kombinatsiyalashgan yeng ham yaxlit bichim, ham o'tkazma bichim xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi (5-6-listlar).

Yumshoq shaklli xishtaksiz yaxlit bichimli ayollar paltosini qurish uchun avvalambor old va ort bo'lak hamda ikki chokli yeng shablonlari tayyorlab olinadi. Ort bo'lak shablonini tayyorlashda yelka vitochkasini yeng o'miziga ochi yuboriladi, old bo'lak ko'krak vitochkasining ma'lum qismi ham yeng o'miziga o'tkaziladi. Yengning vitochkasi yeng qiymasiga ochib yuboriladi. Old va ort bo'laklarning yon chiziqlari bir xil masofada bo'lishi kerak. Old bo'lak yeng qiyamasi 27a nuqtaga va ort bo'lak yengi qiyamasi 19a nuqtalarga qo'yib, bir xil burchak ostida o'zaro moslanadi. Bunda ort bo'lak yelka chizig'ining ko'tarilishi 1,5 smni tashkil qilishi lozim.

Old va ort bo'laklarda yon chiziqlarida yeng chizig'ini belgilanish joyi bir xil masofada olinadi. Ko'pincha yumshoq shakldagi yaxlit bichimli yenglarni hosil qilishda nazorat burchaklaridan foydalaniladi.

Modellashtirishning yakuniy bosqichida old va ort bo'laklari yenglar bilan birgalikda o'zaro birlashtirilib, mayin chiroyli shakl hosil qilinadi.

Xishtakli yaxlit bichimli kiyim model konstruksiyasini qurish xuddi yuqoridagi misol kabi old va ort bo'laklar, yeng asos konstruksiyalari modellashtirilib olinadi. Xishtak o'rnini aniqlash uchun nuqtalar 1 va 2 yeng o'mizida belgilanadi. Old va ort bo'laklardagi yordamchi K_c va K_{Π} nuqtalar old va ort yenglardagi xuddi shu nuqtalar bilan o'zaro moslab, konstruksiyaga qo'yiladi. Old bo'lakda yeng old bo'lak chizig'i va yon bo'lakni kesishgan joyida nuqta 3 belgilanadi. Ort bo'lakda yeng ort bo'lak chizig'i va yon bo'lakni kesishgan joyida

nuqta 4 belgilanadi. 1-3 va 2-4 kesmalarning uzunligi o'zaro teng bo'lishi kerak. Aks holda, ularning o'zaro o'rtacha masofasi topilib xishtak chiziladi.

Xishtak romb shaklida bo'lib, o'zaro perpendikulyar chiziqlar chiziladi va kesishga nuqtasidan o'ngga 11a-2 va chapga 11-1 masofa o'lchab qo'yiladi. Romb balandligi 1-3 va 2-4 kesmalarning uzunligiga teng bo'lib, yo'llar usulida chizib topiladi. Modellashtirilgan kiyimning chiziqlarni o'tkazishda yeng osti qirgim chiziqlari old bo'lakda 2-3 kesmada va ort bo'lakda 1-4 kesmada joylashadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, xishtak balandligini yon tomon bo'ylab tushirib yuborish tavsiya etilmaydi.

Kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasini ishlab chiqishda ham yaxlit bichim, ham o'tkazma bichim elementlari modellashtiriladi. Kombinatsiyalashgan yaxlit bichim hosil qilish uchun dastlab shablonlar tayyorlanadi. Bunda old bo'lakko'krak vitochkasi va ort bo'lak yelka vitochkasi yeng o'miziga ko'chirilib, old va ort bo'laklarda relyef chiziqlari o'tkaziladi. Relyef chiziqlari boshlangan nuqtalarning uzunligi aniqlanib, yengda qo'shimcha vertikal chiziqlar o'tkaziladi. Ular konstruksiya chizmasida yaxlit yeng boshlanish va tugallanish joylarini ko'rsatib turadi.

Yeng bo'laklari old va ort bo'laklar bilan o'zaro moslashtirib qo'yiladi. Yengning old va ort bo'laklari old chizig'i bo'ylab o'zaro moslanib birlashtirib qo'yiladi. Bunda yengning yaxlit bichilgan qismi asta-sekinlik bilan relyef chizig'iga o'tib ketadi. Qolgan o'miz qismiga yeng bolagi o'tkazib birlashtiriladi.

Hisobotga qo'yiladigan talablar:

1. Yumshoq shaklli yaxlit bichimli ayollar paltosi Mksini shablon usulida qurish.
2. Xishtakli yaxlit bichimli ayollar paltosi Mksini shablon usulida qurish.
3. Kombinatsiyalashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi Mksini shablon usulida qurish.
4. Amaliy ish hisobotini A4 formatli qog'ozda rasmiylashtirish.
5. Yaxlit bichimli ayollar paltosi MK chizmalari A4 formatga chiziladi.

6. Yaxlit bichimli ayollar paltosi MK chizmalari M 1:1 millimetrovka qog'ozga chiziladi.

Ko'rgazmali qo'llanmalar:

Moda jurnallari, "Atelye" jurnali, yaxlit bichimli ayollar paltosi MK chizmalari plakatlar.

Nazorat savollari:

1. Yaxlit bichimli kiyimlarni modellashtirish uchun qanday usullardan foydalaniladi?
2. Xishtaksiz yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasi qanday hosil qilinadi?
3. Xishtakli yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasi qanday hosil qilinadi?
4. Kombinatlashgan yaxlit bichimli ayollar paltosi model konstruksiyasi qanday hosil qilinadi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Komilova X.N., N.K. Xamraeva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash". – T.: "Cho'lpon", 2011.
2. Конструктивное моделирование одежды: учеб. пособие / А.И.Мартынова, Е.Г.Андреева. – М.: Московский государственный университет дизайна и технологии. 2006.
3. Конструирование одежды: учебник /Э.К.Амирова, О.В.Сакулина, Б.С.Сакулин, А.Т.Трухнова. – 6-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2010.

Amaliy ish. Yaxlit bichimli ayollar paltosi asosiy andazalarini ishlab chiqish
Ishdan maqsad: yaxlit bichimli ayollar paltosi asosiy andazalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ishni mazmuni va bajarish tartibi:

1. Andozalar haqida ma'lumot.
2. Yaxlit bichimli ayollar paltosi asosiy andozalarini ishlab chiqish.

Uslubiy ko'rsatmalar

O'quvchilar ayollar ustki kiyimlari uchun tayyorlanadigan andazalar haqida ma'lumotlarni to'plab, tushuntirish xatida bayon etadilar.

Detallar andazalarining chizmasi ular konstruksiyasini, shakli va o'lchamlarini, ishlov berish va bichishdagi texnik shartlarini ifodalaydigan texnik hujjatdir. Andazalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga, konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi talablariga muvofiq, tayyorlanadi. Kiyim detallari andazalarining chizmasi konstruksiyaning model xususiyatlari kiritilgan texnik chizma asosida tavsiya qilingan materiallar xususiyatlari va ularga texnologik ishlov berish usullari to'g'risidagi ma'lumotlar yordamida tuziladi. Andazalar chizmasi quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- konstruksiya chizmasi batafsil tekshiriladi;
- chizmaga gazlamaning kirishuvchanligi bilan bog'liq; aniqliklar kiritiladi;
- detallar chizmasining nusxalari boshqa qog'ozga tushiriladi;
- asosiy detallar andazalarining ishchi chizmasi quriladi;
- hosila va yordamchi andazalarning ishchi chizmalari quriladi;
- ishlab chikarishda foydalanishga muljallangan andazalar chizmasidan andazalar shablonlari tayyorlanadi.

Qayd etilgan ketma-ketlik quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Konstruksiya chizmasini tekshirish maqsadida old va ort bo'laklar, qirqma yon bo'lak, yenglar, ostki yoqa singari asosiy detallarning nusxasi maxsus moslama yordamida chizmadan qalin qog'ozga ko'chiriladi va qirqib olinadi. Keyin olingan andazalar shablonida ko'krak, bel, bo'ksa chiziqlari, old o'tar chizig'i, vitachkalar, cho'ntaklar chizig'i va boshqa asosiy konstruktiv chiziqlar belgilanadi. Andazalar shablони yordamida konstruksiya chizmasida biriktiriladigan qirqimlarning tengligi, konstruktiv qirqimlar tutashmalari, nazorat kertiklar joylarining detallarda o'zaro mos igi tekshiriladi.

Detallar andazalarida quyidagi ketma-ketlikda markirovka ma'lumotlari keltiriladi:

- andazalar nomi (etalon yoki original);

- tikuv buyumning nomi;
- model razami;
- andazalar vazifasi (asosiy, hosila, yordamchi va h.k.);
- detal nomi;
- tikuv buyumining razmeri (bo'y, ko'krak aylanasi, bel yoki bo'ksa aylanasi), sm;

- model tavsiya qilingan bo'y va o'lcham chegaralari;
- konstruktiv asosining raqami;
- konstruktorning familiyasi va imzosi;
- ishlab chiqilgan sana;
- tekshirgan katta yoki bosh konstruktorning imzosi, sana.

Yaxlit bicimli ayollar paltosi asosiy detallarning ishchi andozalarini tayyorlash bo'yicha texnik shartlar 16-19 - jadvallarda keltiriladi.

16 - jadval

Detallar spetsifikatsiyasi

№	Buyum detallarining nomi	Detal kodining belgisi	Soni		Izoh
			andozalar	detallar	
1.	2	3	4	5	6
1	Old bo'lak	001	1	2	-
2	Ort bo'lak	002	1	2	-
3	Qoplama cho'ntak	003	1	2	-
4	Manjet	004	1	2	-
5	Xishtak	005	1	2	-
6	Belbog'	006	1	1	Buklov

17 - jadval

Andozalardagi chok haqlari

№	Detal va qirqimlar nomi	Chok haqi nomi va qiymati, sm					Izoh
		Biriktirma chok	Ag'darma chok (Mag'iz chok)	Buklash-qayirishga	Qirqishga	Kirishtirish va ishlov berishga	
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Old bo'lak: bort qirqimi yoqa qirqimi yelka qirqimi yeng tirsak qirqimi	1 1 1	0.7				

		Bel chizig'ida Bo'ksa chizig'ida
3	Qoplama cho'ntak	-
4	Manjet	Tirsak chizig'ida
5	Xishtak	-
6	Belbog'	-

19 - jadval

Detallarda tanda ipining nominal yo'nalishi va andozalarda ulardan yo'l qo'yilgan og'ishlar

№	Detallar nomi	Tanda ipining yo'nalishi	Tanda ipining yo'l qo'yilgan og'ishi, %
1	2	3	4
1	Old bo'lak	Bort chizig'iga parallel	1
2	Ort bo'lak	Ort o'rta chizig'iga parallel	1
3	Qoplama cho'ntak	Yon qirqimga parallel	1
4	Manjet	Old yon qirqimga parallel	1
5	Xishtak	Romb markazidan o'tgan	1
6	Belbog'	Buklov chizig'iga perpendikulyar	1

Hisobotga qo'yiladigan talablar:

1. Asosiy andozalar chizmasi 1:5 masshtabda A4 formatda andozalarning spetsifikatsiya bo'yicha raqamlari ko'rsatilgan holda keltiriladi.
2. Chizmalar tanda iplarining yo'nalishi, nazorat kertiklar joylanishi, chok haqlar chizig'i, andozalar o'lchanadigan konstruktiv chiziqlar ham ko'rsatiladi.
3. Amaliy ish hisobotini A4 formatli qog'ozda rasmiylashtirish.

Ko'rgazmali qo'llanmalar:

